

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI
GEOGRAFIYA VA UNI O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Tabiatshunoslik va geografiya
fakulteti dekani

_____ b.f.n. G'.Qodirov
“ _____ ” _____ 2012 y

5140500 - “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” yo’nalishi bo’yicha bakalavr
darajasini olish uchun

“QASHQADARYO VILOYATI GEOGRAFIYASININING MAKTABDA
O`QITILISHI”

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: DUSHANOVA ZARIFA

Ilmiy rahbar: g.f.n., dots. QURBONOV K.

BMI “Geografiya va uni o’qitish metodikasi”
kafedrasi yig’ilishining _____ 2012 y.
№__ sonli qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedara mudiri:

g.f.n. Q.Hakimov

MUNDARIJA

KIRISH	Bet 3
I – BOB. QASHQADARYO VILOYATINING TABIIY GEOGRAFIK TAVSIFI	
1.1. Geografik o’rni, chegaralari, geologik tarixi va tuzilishi.....	6
1.2. Relyefi va foydali qazilmalari.....	8
1.3. Iqlimi va suvlari.....	13
1.4. Tuproqlari, o’simliklari va hayvonot dunyosi.....	17
II - BOB. QASHQADARYO VILOYATINING IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIFI	
2.1. Aholisi.....	21
2.2. Xo’jaligi: qishloq xo’jaligi, sanoati, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.....	26
2.3. Noishlab chiqarish tarmoqlari.....	39
III – BOB QASHQADARYO VILOYATI MAVZUSINI O’QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	
3.1. Maktab geografiya darsliklarida Qashqadaryo viloyatiga oid mavzular tahlili.....	49
3.2. Mavzularning moddiy texnik ta'minoti va ulardan foydalanish	51
3.3. Qashqadaryo viloyati mavzusining yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi bir soatlik dars ishlanmasi.....	54
XULOSA.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	66

KIRISH

Tadqiqot ishining dolzarbligi. Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, jamiyatning muhim muammolarini hal etishda u asosiy o'rinni egallaydi. Ta'lim inson rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va gumanitar muammolarni hal etishda mislsiz ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun yurtimiz mustaqillikka erishgach turli sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham tub islohotlar o'tkazish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Zero, barkamol, bilimli, so'lom avlod kelajakning poydevori bo'lib hisoblanadi. Jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Darslarda har bir mavzuni yangi pedagogik texnologiyalar asosida axborot kommunikatsiyalaridan foydalangan holda o'itish va o'qitish usullarini ishlab chiqib ta'lim samaradorligiga erishish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Yangi pedagogik texnologiyalar va ular asosida ta'lim samaradorligiga erishish uchun qilinayotdan tadqiqotlar bir qancha ilg'or tajribali metodistlarning ishlarida keng yoritib berilgan.

Ishning maqsadi va vazifalari. Qashqadaryo viloyatining umumiy geografik tavsifini bergan holda mavzuni o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyatini yoritib berish tadqiqot ishining asosiy maqsad va vazifasidir.

Tadqiqot ishining ob'ekti va predmeti. Maktab geografiya darslarining tuzilishi ishning ob'ekti bo'lsa, ushbu kursda Qashqadaryo viloyatining o'qitilishi usullari predmeti bo'lib hisoblanadi.

Ishning ilmiy yangiligi. Qashqadaryo viloyatining tabiiy, iqtisodiy shart - sharoitlari hamda maktab geografiya kursida mintaqaning yangi pedagogik

texnologiyalar asosida o'qitilishi va bunda erishish mumkin samaradorlik natijalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Birinchi bob. Qashqadaryo viloyatining tabiiy geografik tavsifi deb nomlanib, unda viloyatning geografik o'rni, chegaralari, geologik tarixi va tuzilishi, relyefi va foydali qazilmalari, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot haqida yoritiladi.

Ikkinchi bob. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy geografik tavsifi bo'limida mintaqaning aholisi, xo'jaligi, noishlab chiqarish tarmoqlari to'g'risida ma'lumotlar tasvirlanadi.

Uchinchi bob. Qashqadaryo viloyati mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida yoritiladi va maktab geografiya darsliklarida Qashqadaryo viloyatiga oid mavzular tahlili keltiriladi, Qashqadaryo viloyati mavzusining yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi bir soatlik dars ishlanmasi ishlab chiqiladi.

Ishning **xulosa** qismida tadqiqotning ilmiy – amaliy natijalari haqidagi mushohadalar keltirilgan va tavsiyalar berilgan.

I - BOB. QASHQADARYO VILOYATINING TABIIY GEOGRAFIK TAVSIFI

1.1. Qashqadaryo viloyatining geografik o'рни chegaralari, geologik tuzilishi va tarixi

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston hududining janubiy qismidagi Qarshi botig'ini o'z ichiga oladi.

Pomir-Oloy tog' sistemasining g'arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari, Hisor va Zarafshon tizma tog'lari orasida, shumoli-g'arbidan, Buxora viloyati, shimoldan qisman Navoiy viloyati, shimoldan Samarqand viloyatlari bilan chegaradosh, hamda janubi-sharqdan Surxondaryo viloyati, sharqdan esa Tojikiston Respublikasi, janubi-g'arbdan va g'arbdan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh.

U shimolda O'rta Zarafshon okrugi orqali Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari bilan, shimoli-sharqda Zarafshon tizmasining quyi etaklari, sharqda esa Hisor tizmasining janubi-g'arbiy qismining quyi etaklari bilan o'ralgan, janubiy-sharqdan Chak-char tizmasi orqali o'tadi. G'arbidan va shimoli- g'arbdan Quyi Zarafshon okrugi bilan chegaralanib turadi, chegara asosan tekisliklardan o'tadi. Jarqoq va Dengizko'l platolari bu ikkala okrugini bir-biridan ajratib turadi.

Ushbu viloyat 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan bo'lib, 1927- yil 17-fevraldan 1938- yil 15- yanvarga qadar Qashqadaryo okrugi maqomi berilgan. 1938- yil 15- yanvarda Buxoro viloyati tarkibiga qo'shib yuborildi . 1943- yil 20-yanvar oyidan esa Buxoro viloyatidan Surxondaryo viloyatiga qo'shib yuborildi. 1964- yil 7- fevraldan yangidan Qashqadaryo viloyati sifatida tashkil etildi.

Qashqadaryo viloyatining maydoni 28,6 ming kv.km.ni tashkil etib, uning aholisi 2005-yilda 2378,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2010- yilning 1-yanvar oyining ma'lumotlariga ko'ra 2589,6 ming kishiga yetgan.

Tarkibida 13 ta qishloq tumani bo'lib, ularga:

1. Dehqonobod tumani(Karashina a.p.) ,
2. Kasbi tumani (Mug'lon a.p.),
3. Kitob tumani (Kitob shahri),

4. Koson tumani (Koson shahri),
5. Mirishkor tumani (Yangi Mirishkor a.p.),
6. Muborak tumani (Muborak shahri),
7. Nishon tumani (Yangi Nishon shahri),
8. Qamashi tumani (Qamashi shahri),
9. Yakkabog' tumani (Yakkabog' shahri),
10. Qarshi tumani (Qarshi shahri),
11. Chiroqchi tumani (Chiroqchi shahri),
12. G'uzor tumani (G'uzor shahri),
13. Shahrisabz tumani (Shahrisabz shahri) kiradi.

Bundan tashqari viloyatga bo'ysinuvchi shahr Qashqadaryo shahri bo'lib, qishloq tumaniga bo'ysunuvchi shaharlar soni esa 11 tani tashkil etadi (2008-yil). Shu bilan birga 147 ta qishloq fuqarolar yig'ini va 1064 ta qishloqlardan iborat.

Qashqadaryo viloyati o'zining vijudga kelishi va yer yuzasining tuzilishi jihatidan shimoldagi Zarafshon tizmasi Samarqand viloyati va sharqdagi Surxondaryo viloyatlaridan farq qiladi. (Hisor-Zarafshon tog'lari) Hisor-Zarafshon tizma tog'lari paleozoy va mezazoy cho'kindi va otqindi yotqiziqlari bilan qoplangan. Gertsen va alp orogenetik jarayoni ta'sirida burmalangan. Qashqadaryo viloyati esa qalin allyuvial, pralliyuval va eol-akkumulativ jinslardan iborat bo'lib, ularning tagida tub jinslar yotadi. Allyuvial va prallyuvial jinslar kompleksi o'zlarining yoshiga ko'ra o'rta va yuqori antropogen davrlariga xosdir.

Qashqadaryo viloyatining o'rta qisimdagi qirlar va qoldiq tog'lar esa bor, poleogen va neogen jinslaridan tashkil topgan.

Qashqadaryo viloyati geologik tuzilishini relyefi bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, g'arbiy va shimoli- g'arbiy hududlarida kaynazoy gurihi to'rtlamchi va neogen sistemalaridan tashkil topgan ba'zi bir qisimlarida paleogen davr jinslaridan tashkil topgan. Yer yuzasi relyefi murakkablashb brogan sari bor, yura, trias, perm davri yotqiziqlari uchraydi. Shimoli- sharqiy hududlarida esa paleozoy

guruhiga kiruvchi toshko'mir, devon silur, ordovik, kembriy davrlari yotqiziqlari asosan, tog' yoni va tog'li hududlarda uchraydi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari

№	Qishloq tumanlari	Tashkil topgan yili	Tuman markazi	Maydoni, ming kv. km	Aholisi, ming kishi	Aholi zichligi 1kv.km kishi
1.	Dehqonobod	31.08.1971	Karashina sh-cha	4,00	116,3	29,1
2.	Kasbi	25.12.1968	Mug'lon sh-cha	0,65	150,1	230,9
3.	Kitob	25.12.1968	Kitob sh	1,75	212,1	121,1
4.	Koson	29.09.1926	Koson sh	1,88	223,3	118,8
5.	Mirishkor	25.04.2003	Yangi Mirishkor sh-cha	3,21	93,0	29,0
6.	Muborak	13.09.1978	Muborak sh	3,07	68,9	22,4
7.	Nishon	06.03.1975	Yangi Nishon sh	2,11	109,4	51,8
8.	Chiroqchi	22.02.1964	Chiroqchi sh	2,84	311,4	109,6
9.	Shahrisabz	29.09.1926	Shahrisabz sh	1,66	297,8	179,4
10.	Yakkabog'	20.09.1926	Yakkabog' sh	1,10	209,4	190,4
11.	Qamashi	31.12.1964	Qamashi sh	2,66	209,9	78,9
12.	Qarshi	04.10.1931	Beshkent sh	0,91	191,3	210,2
13.	G'uzor	29.09 1926	G'uzor sh	2,65	160,7	60,6

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1.2. Relyefi va foydali qazilmalari

Qashqadaryo viloyati yer yuzasi tuzilishi ancha murakkab bo'lib, yer yuzasi sharqdan g'arbga pasayib adirlarga, so'ngira esa tekisliklarga aylanib ketadi. Taxminan yarmidan ko'roq qismini tekislik va uncha baland bo'lmagan o'nqir-cho'nqir tepaliklardan iborat (250- 500 metr dengiz sathidan baland). Shimoldan, sharqdan va janubi- sharqdan g'arbga tamon cho'zilgandir. Janubi- g'arbga tomon esa pasayib boradi. Katta maydonga ega bo'lgan Qarshi cho'li ham aynan shu yerda joylashgan.

Biroq bu viloyat hududida onda-sonda (pastroq) qoldiq tog'lar va platolar ham uchrab turadi. Viloyat shimoli-sharq va janubiy-sharq tog'lar bilan o'ralgan. Bu yerda Zarafshon va Hisor tizmalari, Chaqchar tog'lari ko'tarilib turadi. Ularning eng baland nuqtasi 3750- 4400 metrgacha yetadi. Shahrisabz tumaning eng chekka sharqiy qismida 4100- 4400 metrlik balandlikka ega bo'lgan to'g' cho'qqilari bor. Masalan, Gova davonining balandligi 4415 metr. Umuman olganda Shahrisabz, Qamashi, Dehqonobod, Kitob va Chiroqchi tumalarining shimoliy qismi tog'lardan iborat. Nisbatan baland (dengiz sathidan 4400 metr baland) joylar ham mavjud bo'lib, bunga Yakkabog' tumaning sharqiy hududlarida ham bor.

Qarshi shahrining shimolida Qo'ng'irtog' (517 metr), Koson shahrining janubida Kosontog', Moymoqtog' (500 metr), Sandikli qumligining sharqida esa Oloviddintog' (485 metr), viloyat g'arbida Jarqoq platosi (397 metr) va Dengizko'l (380 metr) platosi joylashgan. Qarshi, Nishon, Qarnob hamda, Malik cho'llari va Sandikli qum cho'llari kabi qator cho'llar mavjud.

Qashqadaryo viloyatining g'arbi Sandikli qumligi bilan tutashib ketadi Sandikli qum cho'lining yuzasida qator qum tepalar va marzalardan iborat. Bundan tashqari, bu yerlarda ko'chma qumlar hamda taqirlarni ham uchratish mumkin. Bu esa boshqa hududlardan o'ziga xos xususiyatlarini vujudga keltirgan. Viloyatning g'arbida juda katta Qarshi cho'li bor; uning yer yuzasi Qarshi vohasiga nisbatan past (250- 300 metr) bo'lsada lekin unda o'nqir-cho'nqir yerlar ko'p. Past yerlarda Do'latlisho'r, Sho'soy, Oqjayronsoy, Sho'xtasho'r, Yonboshsho'r va boshqa sho'rxoklar, taqirlar xosil bo'lgan. Qarshi cho'li shimoli va shimoli-g'arbga davom etib Qarnob va Malik cho'llariga borib qo'shiladi. Qarnob cho'lining mutloq balandligi 250- 300 metr bo'lib, shimolda Ziyovuddin tog'lariga tutashadi. G'arb tomoniga pasayib Toshloqqum hamda Uchqum qumliklariga aylanadi. Qarnob cho'li toshloq, taqir va sho'rxok yerlardan iboratdir. Uning janubida Malik cho'lga borib tutashib ketadi. Malik cho'li g'arbdan sharqqa qarab 65 k.m. ga cho'zilgan. Qarshi cho'lining janubida Nishon cho'li joylashgan bo'lib, yer usti tuzilishi jihatidan tekisliklardan iborat va ular orasida platosimon balandliklar ham ucraydi. Ushbu balandliklarning eng muhimlari Qoraqir (mutloq balandligi 500

metr), Do'ltalitog' (mutloq balandligi 514 metr) Oloviddintog' (485 metr) va boshqalar mavjud. Bular ichida Qoraqir suv erroziyasi natijasida juda ham parchalanib, juda notekis relieflar, yani jarliklar vijudga kelgan. Shu sababli shu yerli xalq Qoraqirning o'sha jarlardan iborat bo'lgan sharqiy qismlarini "Sakson dara" deb atashadilar. Shunday qilib mintaqaning yer yuzasi oragrafik tuzilishi shimoli-sharq, sharq va janubi – sharqdan g'arb, shimoli – g'arb yo'nalishida pasayib borish bilan tavsiflanadi. Qolaversa Qashqadaryo, ya'ni shu nomli gidrografik tizimning, uning havzasini shakillanishi, oqim yo'nalishi ham viloyat relyefini o'zida aks ettiradi.

Qashqadaryo o'lkasining shimoli-sharqi tog'liklardan va tepaliklardan iborat bo'lib, bu hududda Zarafshon tizmasining g'arbiy davomi hisoblangan Chaqilkalon tog'i joylashgan. Chaqilkalon tog'i asosan, kenglik bo'ylab cho'zilgan, eng baland cho'qqisi Zebon – 2336 metr. Chaqilkalon tog'ining g'arbidagi Qirqtog' platosida karst jarayoni va Turkistondagi eng chuqur Kili g'ori (chuqurligi 1082 metr) joylashgan. Chaqilkalon tog'i Taxtaqorachi (1630 metr) davonida tugaydi, so'ngira g'arbga qarab Qoratepa tog'i davom etadi. Qoratepa tog'ning eng baland Kamqo'ton co'qqisi 2195 metrga yetadi. Taxtaqoracha davonidan Samarqand – Kitob avtomabil yo'i o'tgan. Qoratepa tog'i Jom cho'lida tugab, so'ngira Zirabuloq tog'i boshlanadi. Ziyovuddin – Zirabuloq tog'lari ham paleozoy erasining gertsin tog' paydo bo'lish bosqichida burmalangan. Ular nurash jarayoni ta'sirida pasayib, yassilanib qolgan va quruq soylar bilan parchalanib yuborilgan. Hisor Qashqadaryo o'lkasidagi eng baland tog' tizmasi hisoblanadi. Hisor tizmasi gertsin burmalanishida sodir bo'lgan bo'lib, asosan paleozoy granit ohaktosh va slaneslardan tuzilgan. Bu qattiq jinslar ko'p yerlarda ochilib yotadi, tik va qoyali yonbag'irlar hamda chuqur daralarni hosil qilgan.

Hisor tog' tizmi bir necha tizmadan iborat. Ularning eng muhimlari Hazrati Sulton, Chaqchar, tog'lari hisoblanadi. Bu tog'larning eng baland cho'qqisi Hazrati Sulton bo'lib, 4643 metrga yetadi. Bu tog'larda Botirboy (uzunligi 2,2 k.m. maydoni 3 kv. km.) muzligi joylashgan. Hisor tizmasida 3209 metr balandlikda Muxbel davoni ham mavjud. Hisor tizmasida shimoli g'arbga va g'arbga qarab

Sho'rtog' va Suvsar tog'lari boshlanadi. Chaqchar tog'ining sharqida Boysun tizmasi joylashgan. Beshnov, Eshakmaydon kabi tog'lar ajralib chiqadi. Qashqadaryo o'lkasiga qaraydigan tog'larning quyi qismida adirlar joylashgan. Adirlar o'lkaning tekislik qismini sharqdan o'rabturadi. Zarafshon, Hisor tog'lari orasida Kitob – Shahrisabz botig'i joylashgan.

Viloyat relyefining bunday turli-tumanligi o'ziga xos tabiiy boyliklarga egaligini asoslab beradi va ichki hududiy mehnat taqsimoti, iqlim sharoitlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Jumladan Qashqadaryo viloyatining quyi qismi qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qulay bo'lgan katta yer maydonlariga ega. Shu bilan birga bu hudud respublikamizda neft va tabiiy gaz zaxiralarining ko'pligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Chunonchi: Mazkur hududa Ko'k dumaloq, Muborak, Pomuk kabi yirik neft konlari va Sho'rtan, Zevardi, Qo'ltiq kabi bir qancha gaz konlar mavjud. Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida esa turli xil tuz konlar: xususan, juda katta zaxiraga ega bo'lgan kaliy tuzlarining borligi mamlakatimizda "kaliy o'g'itlari"ni ishlab chiqarish sanoatini tashkil qilish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda "Tubugaton" tuz koni asosida respublikamizda qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan kaliy o'g'itlari ishlab chiqaruvchi dastlabki zavod barpo etilmoqda. Bundan tashqari viloyat hududida bir qancha qurilish materiallari: ohak tosh, granit, sement xomashyosi, kermzit, qum-shag'al materiallari, g'ish-cheripitsiya xomashyosi, marmar kabi foydali qazilma konlari mavjud.

Qashqadaryo viloyatida xususan yoqilg'i-energetika, tog'-kon va gaz-kimyosi sanoatini keng ko'lamda rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlarga ega. Mintaqa bunday ulkan mineral resurslar salohiyati bo'yicha respublikamizda alohida ajralib turadi, Bu xususida Qashqadaryo viloyati Navoiy va Toshkent viloyatlari singari mamlakat milliy iqtisodiyotining, eng avvalo tog'-kon, yoqilg'i-energetika sanoatini rivojlantirishga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

1.3. Iqlimi va ichki suvlari

Qashqadaryo viloyati iqlimi boshqa viloyat iqlimidan o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Uning iqlimi kontinental iqlim hisoblanib, yozi issiq va uzoq davom etadi. Qishi esa birmuncha iliqroq (yanvar oyining o'rtacha harorati $0^{\circ}\text{C} + 2^{\circ}\text{C}$) bo'lib, o'simliklar vegetatsiyasi deyarli yil davomida davom etadi. Lekin ba'zan shimoldan Arktika havo massalari kirib kelib, turib qoladi, hududni sovutib yuboradi va kuchayib ketganda to'g'lardan oshib o'tib mintaqa haroratini keskin pasaytirib yuboradi. Natijada ayrim yillari qish oyolarining eng past harorati -22°C dan -29°C gacha tushib ketadi. G'uzorda -23°C , Kitobda -26°C , Qarshida -27°C , Dehqonobodda -29°C gacha tushadi. Yozi o'lkaning tekis qismida issiq va quyoshli bo'lib, yozi esa (iyul oyining o'rtacha harorati $+28^{\circ}\text{C} + 29^{\circ}\text{C}$), Qarshida $+28,8^{\circ}\text{C}$, Kitobda $+28^{\circ}\text{C}$, G'uzorda $+29,4^{\circ}\text{C}$, Dehqonobodda $+28,4^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Eng yuqori harorat $+43^{\circ}\text{C}$ dan $+47^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilib turadi. O'lkaning tog'li qismlarida tekislik qismidagiga nisbatan havo harorati biroz pastroq bo'ladi. Qashqadaryo viloyatida 0- 24 kun davomida havo harorati 0°C past bo'lib, 284-298 kun davomida havo harorati $+5^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo'lib turadi. Qashqadaryo viloyatida bahori erta boshlanib, sovuqli kunlari esa kech boshlanadi. Oxirgi sovuq tushishning o'rtacha muddati 16- 25- martgacha, kuzgi birinchi sovuq tushishining o'rtacha muddati esa 21- oktyabr, 14- noyabr oylarining orasiga to'g'ri keladi. Binobarin sovuqsiz kunlarning o'rtacha muddati 209- 242 kun atrofida bo'lib, o'sha davirdagi foydali haroratning yig'indisi 2564°C dan 2864°C yetadi. Vegetatsiya davridagi haroratning yig'indisi esa 4900°C dan 5300°C gacha yetadi. Bunday iqlim sharoiti ingichka tolali paxta va boshqa issiq sevar o'simliklarni yetishtirishga to'la imkon beradi. Lekin yozda bu hududga garimsel esib, qishloq xo'jalik ekinlariga katta zarar yetkazadi. O'simliklar barglari qovjirab qurib qoladi. So'ngi yillarda Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi tufayli, ixota daraxtlarini ekib ko'paytirilishi sababli garimselning kuchi kamayib bormoqda.

Qashqadaryo viloyatida yog'inlar miqdori boshqa viloyatlardan farqlanadi. Yog'in miqdori uning relyefiga ko'ra g'arbdan sharqqa qarab o'zgarib, ya'ni

ortib boradi. Yog'in sochin miqdori ayniqsa cho'l hududlarida juda oz miqdorda tishadi. Binobarin, bu yerda dehqonhilikni rivojlantirish uchun irrigatsiya infratuzilmasi talab etiladi. Ayni vaqtda tog' oldi va tog' mintaqasida yillik yog'in-sochin miqdori 800-900 mm gacha yetadi. Bu esa daryolrning to'yinishiga qulay sharoit yaratadi va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tabiiy asos bo'lib xizmat qiladi. Eng kam yog'in (180 mm) viloyatning g'arbiy tekislik qismiga to'g'ri keladi va sharqda tog'oldi qiya tekisliklarida 550 mm yog'in tushadi. Yog'inlarning asosiy qismi kuz, qish, bahor fasillariga to'g'ri keladi. Yillik yog'in miqdorining 45-50 foizi bahor fasliga, 37-40 foizi qish fasliga, 10-15 foizi kuz fasillariga to'g'ri keladi. Yoz fasli boshqa fasillarga nisbatan ancha qurg'oqchil bo'lib, yillik yog'in miqdorining faqat 0-3 foiziginasini tashkil etadi.

Yog'inning bir qismi qattiq xolda tushib, bir yilda o'rtacha 2 kundan 17 kungacha qor erimay turadi va qorning qalinligi Qish faslining yanvar va fevral oylarida o'rtacha 5-7 sm gacha yetishi mumkin. Qashqadaryo viloyatida qishda samol shimoli - sharqiy tamondan esadi, yozda esa shimoli – g'arbiy, g'arbiy tamondan esadi. Bu hududda shamolning yillik o'rtacha tezligi sekundiga 1,9- 3,0 metrlar atrofida bo'ladi. Lekin yozda shimoli- g'arbdan va g'arbdan quruq shamollar esganda tezligi o'rtacha sekundiga 3,7 metrgacha yetishi mumkin.

Qashqadaryo o'lkasida yer usti suvlari ichida eng muhimi daryolar hisoblanadi. Bu daryo Qashqadaryo havzasida joylashgan uning nomi ham, tarixi ham, geografiyasi ham aynan shu suv manbai bilan bog'liq. Qashqadaryoga Jondirdaryo, Oqsuv, Tanxozdaryo, Oyoqchidaryo, Qizildaryo va boshqa daryolar kelib qo'shiladi. Natijada viloyatning yuqori (Shahrisabiz) tumanida gidrografik tizim ancha rivojlangan. Biroq Qashqadaryo quyi mintaqalarga borgan sari uning suvi kamayib boradi va bir vaqtlar Zarafshon daryosigacha borib yetgan bu daryo hozirda Qarshi-Koson atrofida tamoman tugab qoladi.

Qashqadaryo tekislikka chiqgach sekundiga 50 kub metr yoki yiliga 1575 mln kub metr miqdorda oqim hosil qiladi. Lekin bu suv viloyat hududida sug'orish maqsadida butunlay sarflanib yuboriladi. Qashqadaryo viloyatining shimoliy

qismida joylashgan Qoratepa balandligidan 20 ga yaqin soylar boshlanadi. Bahor oylarida bu soylardagi suv miqdori ko'payib, to'lib-toshib oqadi. Yoz oylariga kelib bu soylardagi suv miqdori ancha kamayadi hamda ular sug'orishga sarflanadi. Bu soylarning orasidagi eng muhimlariga Sho'robsoy, Makridsoy, Oyoqchisoy, Palqamasoy va boshqalarini kiritish mumkin.

Qashqadaryo to'g'laridagi kichik-kichik tog' muzliklaridan, bahorgi yog'in sochinlaridan to'yinadi. Shu sababli uning suvi bahor faslida ko'payib, yoz, kuz va qish oylarida suv sarfi miqdori kamayadi. Yillik suv miqdorining 64 foizi mart-iyun oylariga, 11.7 foizi iyul-sentyabr oylariga to'g'ri keladi. Shu sababli havzadagi bahor oyidagi toshqin suvlarini to'plab, so'ng ularni yoz faslida ekin dalalarga sug'orish maqsadida Qashqadaryoda bir necha suv omborlari qurilgan. Qashqadaryodagi Chimqo'rg'on (suv sig'imi 500 mln kub metr, maydoni 49.2 kv. km, uzunligi 1.7 km), G'uzordaryodagi Pachkamar (suv sig'imi 280 mln kub metr, maydoni 13.8 kv. km), Qarshi magistral kanalida qurigan Tolimarjon (suv sig'imi 1900 mln kub metr) va Sho'rsoy (suv sig'imi 2500mln kub metr) kabi suv omborlari mavjud.

Viloyatdagi yirik Qarshi magistral kanali Amudaryodan boshlanadi va qisqa masofada respublikamizning janubi-g'arbida joylashgan. Turkmaniston Respublasi hududidan oqib o'tadi, so'ngra u, Katta Tolimarjon suv omboriga borib quyiladi. Uning suvi qudratli nasos stansiyalari yordamida 132 metr balandlikka ko'tarib beriladi. Bu kanalning uzunliga 200 km.ni tashkil etadi. Bundan tashqari cho'l mintaqalarida Mirishkor (dastlabki nomi: Ulyanov) kanali suvlari bilan ham qishloq xo'jalik yerlari sug'orishda ishlatiladi. Qarshi cho'li, ya'ni viloyatning shimoliy qismiga, asosan, Chiroqchi tumaniga Zarafshon suvlarini Eski-Anhor kanali orqali olib kelingan.

Qashqadaryo viloyatidagi cho'llarda sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida 1970- yillarda Qarshi dashti o'zlashtirilishi keng miqyosida olib borilgan. Hozirgi kunda viloyat hududida qator sug'orish inshootlari barpo etilgan.

Bu ishlar natijasida Qarshi cho'lida asrlar osha qaqrab, qovjirab yotgan yerlarni sug'orish imkoniyati ortdi.

Qashqadaryo viloyatining yer yuzasida suv kam bo'lsada, biroq yer osti suvining katta zahirasi bor. Bu yerda to'rtlamchi davr yotqiziqlari orasidan chiquvchi suvlar hozirgi vaqtda chorvachilikni suv bilan ta'minlashda katta ro'l o'ynaydi. Shuningdek bo'r, paleogen va neogen davr yotqiziqlar orasida shifobaxsh madanli suvlar topilgan. Viloytdagi juda ko'p qishloq ishchi posyolkalari va shahar aholisini suvga bo'lgan ehtiyojini aynan shu yer osti suvlar ta'minlaydi. Qashqadaryo gidrogeologik rayonida aholi tomonidan yer osti suvlarining ishlatilish miqdori sekundiga 9.8 kub metrni tashkil etmoqda.

Respublikamizning shunga o'xshash boshqa hududlarida bo'lganidek bu yerda ham ko'plab zovurlar (kollektorlar) va to'planib qolgan oqovo suvlardan tashkil topgan tuz ko'llar bor. Ular ko'proq Qarshi dashtida uchraydi. Demak, bir tamondan kanal va suvomborlari yerlarni sug'orishda hizmat qilsa obodonlashtirsa, ikkinchi tamondan zovur va sun'iy ko'lchalar hudud agroekologiyasining noqulayligidan darak beradi. So'ngi yillarda O'zbekiston hukumati tamonidan kollektor-drenaj tizimlarini ta'minlashda va yangilarini qurishga katta etibor qaratilmoqda. Ushbu muammo ayniqsa, Qarshi dashti hududida joylashgan qishloq tumanlari uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Qisqacha taxlildan ko'rinib turibdiki, viloyat agroiklimiy sharoitlari hamma joylarda ham bir xil emas. Chunonchi, uning yuqori qismida intensiv dehqonchilikni rivojlantirish, bog'dorchilik va uzimchilikni tashkil qilish va rivojlantirish uchun yuqori imkoniyatlar mavjud bo'lsa, quyi cho'l mintaqasida tabiiy sharoit qadimdan g'alla va chorvachilik uchun qulaylik qilib kelgan. Keyinchalik bu yerlarda ham sug'orma dehqonchilik rivojlanib brogan. G'allachilik qisman tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik asosida ham tashkil etilgan.

1.4. Tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi

Qashqadaryo viloyatining tuproq qoplami o'ziga xos bo'lib, uning ona jinsiga, relefiga, yer osti suvlarining xususiyatlariga hamda iqlimiga bog'liq xolda hudud bo'yicha bir xil tarqalgan emas. Qashqadaryo viloyatining tuproq va o'simliklari turli-tuman bo'lib, balandlik mintaqasi xususiyatlariga ega. Qashqadaryo qayirlarida, tog' etaklari va tog' oldi qiyaliklarida tipik bo'z tuproqlar, o'tloqi bo'z tuproqlar va o'tloqi tuproqlar, to'q tusli bo'z tuproqlar, o'tloqi bo'z va o'tloqi tuproqlar allyuvial-o'tloq qisman botqoq o'tloq tuproqlar va boshqa ko'plab boshqa tuproqlar tarqalgan va eskidan sug'oriladigan cho'l o'tloqi tuproqlar, ayrim joylarida sho'rxoklar mavjud. Sug'oriladigan yerlarda o'tloq-voha, bo'z-voha tuproqlari tarqalgan. Hisor tog'tizmasining quyi qismlarida, xususan g'arbiy yon bag'irlarida, Chaqalikalon, Qoratepa tog'larida va boshqa tog'larda to'q tusli bo'z tuproqlar tarqalgan bo'lib, 600-700 metrdan 1200-1300 metr, xatto 1900 metrga qadar balandlikka ko'tarilib brogan. Hisor tizmasining g'arbiy va shimoliy g'arbiy yon bag'irlarida chirindiga boy jigar rang tuproqlar tarqalgan. Jigar rang tuproqlar Hisor tog'ining janubiy yon bag'irlarida 1900-2000 metrdan, 2400-2500 metrgacha uchraydi. Baland tog' landshaftlarida och tusli qo'ng'ir-o'tloq dasht tuproq rivojlangan. Halqob va zah yerlarda o'ziga xos tuproqlar tarqalgan. Uyerlarda turli tipdagi tog'-o'tloq tuproqlar vijudga kelgan. G'arbiy va janubi-g'arbiy tekisliklarda sho'rlangan sur-qo'ng'ir, qum va qumli tuproqlar, taqirirsimon cho'l tuproqlari, sho'rxok tuproqlar tarqalgan. Qarshi cho'lida och bo'z tuproqlar, cho'lning sharqiy balandroq qismida esa tipik va to'q bo'z tuproqlar, och tusli boz tuproqlar tarqalgan. Qarshi cho'lidagi Do'ltalisho'r, Sho'rsoy, So'xtasho'r kabi botiqlarda sho'rxok tuproqlar uchraydi.

Qashqadaryoda asosan kserafid o'simliklar o'sadi. Tog' etaklarida va tog oldi qiyaliklarida rang-qo'ng'irbosh o'simlik farmatsiyasi rivojlangan. Bu mintaqaga joyiga qarab 800 metr balandlikka chiqib brogan joylarda lalmikor ekinlar bilan band. Efemer-bug'doyiq o'simlik farmatsiyasi Hisor tog'tizmasining quyi qismlarida, xususan g'arbiy yon bag'irlarida, Chaqalikalon, Qoratepa tog'larida va

boshqa tog'larda yaxshi avj olgan. Shu mintaqadagi ayrim past tog'larda pistazorlar ham ko'p uchraydi. Qoratepa va Chaqalikalon tog'larining janubiy yon bag'irlari, Hisor tizmasining g'arbiy yon bag'irlarida archalar bor. Hisor tog'larining janubiy yon bag'irlarida, taxminan 1900-2000 metr dan 2400-2500 metr balandliklarda daraxtzor va butazorlar uchraydi. Zarang, qayin, tog' terak, yong'oq, olma, ba'zan archa va bodom, butalardan do'lana, pista, namatak (itburun) kabilar o'sadi. Tog'tizmalarining 2400-2500 metr, ba'zan 3000 metr yuqori qismlarida subalp va alp o'tloqlaridan iborat, ularning yuqori chegaralari 4000-4300 metrga qadar boradi. Bu yerda turli o't- betaga farmatsiyasidan iborat o'simliklar katta maydonni qoplab yotadi. Mushuk, quyruq, qo'ng'irbosh, yovvoyi arpa, betaga, suli, oq so'xta, kavrak va boshqa turli xil o'simliklarning yozgi yaylovlik ahamiyati nihoyat katta. Halqob va zax yerlarda o'ziga xos o'simliklar tarqalgan. U yerlarda turli xil o'simliklardan; oq maymoq, to'ng'izsirt, suvrang, choy o't, qoqi o't, alp lolasi va boshqalar o'sadi. Baland tog' tepalarida doimiy qor va muzliklardan iborat nival mintaqadir, bu yerlarda hech narsa o'smaydi.

Viloyatning janubi-g'arbida, ya'ni Kogon-Qarshi temir yo'lining janubidagi mustahkamlangan, efemer o'simliklar, ko'p yillik sho'rli cho'l o'simliklari, qumli yerlarda shuvoq, illoq, qora saksovul, quyon suyak, qizil qandim, efemerlardan; sariqbosh, yoliqora, bir yillik o'simliklardan; qirqqiz, qumtaqir; ko'p yillik o'simliklardan; esa chayir, urg'ochi selin, tuyapoypoq o'sadi. Qashqadaryo viloyatining shimoliy-sharqidagi och bo'z tuproqli yerlarda qo'ng'irbosh, rang va kserofit o'simliklardan temir jusan, shuvoq, oq quvrak, sho'rxok o'simliklaridan; pashmak sho'ra o'sadi. Qarshi vohasining atrofidagi taqirli yerlarda buzoqbosh, har xil sho'ralar o'sadi. Viloyatning sharqiy tog' oldi qismida esa bug'doyiq, kavrak, qarg'aoyoq, Qashqadaryo qayirlarida qamish, yulg'un, yantoq o'sadi.

Viloyatning hayvonlari ham tuproq va o'simlik singari mintaqalar bo'ylab tarqalgan. Ammo ba'zi hayvonlar ozuqa va o'lja izlab, mintaqadan-mintaqaga o'tib yuradi. Viloyat hayvonlari; to'ng'iz, ayiq, silovsin, alqor (arxar), taka (yovvoyi kiyik), jayra, bo'ri va tulkilar o'monlarda yashaydi. Tog' sharoitiga moslashgan

xilma-xil tog', dala, o'rmon sichqon va kalamushlari, olmaxon, sug'ur, pishchuxa, sassiqko'zan, tosh savsari kabi hayvonlar ko'p. Parrandalar ham xilma-xil. Burgut, lochin, kalxat va qirg'iylar parvoz qilib yuradi. Tuvoloq, kaptar, kaklik, har turli o'rmon parrandalari, xususan chumchuq, nihoyatda ko'p. Suv parrandalari; o'rdak, g'oz, loyxo'rak kabi qushlar gala-gala bo'lib uchraydi. Viloyatning janubi-g'arbidagi qumli cho'llarda (Sandiqli qumligida) Qizil qumga xos sudralib yuruvchi hayvonlardan gekkon va dumaloqbosh kaltakesaklar, qum bo'g'ma iloni, echkiemarlar, kemiruvchi hayvonlardan qumsichqon, tipratikon, yirtqich hayvonlardan bo'ri uchraydi.

Qushlardan tuvoloqlar uchraydi. Gilli cho'llarda esa kaspiy gekkoni, kemiruvchi hayvonlardan qushayoq, yumronqoziqlar uchraydi. Ahyon- ahyonda jayron, jayra va boshqa hayvonlar uchrab qoladi.

Qashqadaryo viloyati juda ko'zga ko'rinarli juda ko'p tabiiy hushmanzara joylardan tashkil topgan. Shu jumladan, Qashqadaryoga qarashli bo'lgan Hisor (sobiq Miroqi va Qizil suv) tog' archa qo'riqxonasi. Hisor tizmasining g'arbiy yonbag'rida, ya'ni Qashqadaryo viloyatining Qamashi va Shahrisabz tumanlarida joylashgan. Maydoni 76800 gektar bo'lib, bu qo'riqxona 1975- 1976- yillarda tashkil etilgan. 1985- yilda esa qaytadan tashkil etildi. Tog' landshafti va baland tog' landshafti va archa, zirik, na'matak (itburin) kabi o'simliklar, hayvonlardan; ayiq, qor qoplani, silovsin, tog' takasi, to'ng'iz, jayra, qizilsug'ur va boshqalar muhofaza ostiga olingan.

Ushbu viloyatda yana bir qo'riqxona Kitob geologik qo'riqxonasi o'z mavqeyi bo'yich o'rta ahamiyatli bo'lib, u avvalo, tabiyatning nodir ne'matlarini muhofaza qilish ucun yaratildi. Ya'ni, kitob geologik qo'riqxonasi Yerning geologik tarixini himoya qiluvchi, tabiiy-ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan paleontologik stratigrafik qatlamlarni muhafoza etish va rejali o'rganish uchun tashkil etildi. Bu qo'riqxona takrorlanmas ajoyib noyob xususiyatlarni o'zida saqlab Xalqaro (olamshumil) ahamiyatga ega bo'lganligi uchun biroz to'xtalib o'tamiz va N. Axmedov va boshqalar (1977- yil) ma'lumotlari bo'yicha tasvirlaymiz. Qo'riqxona Qashqadaryo viloyatning g'arbiy chekkasida Kitob

tumani hududida Jinni daryosi vodiysida joylashgan. Maydoni 5,3 ming gektarni tashkil etilgan. Bu qo'rixonada asosan tabiiy landshaftlar, tosh qotgan o'simlik va hayvonlar qoldig'i, tog' jinslari himoya qilinadi. Bu nayob qo'riqxona o'simlik va hayvon turlariga ham boy bo'lib, xilma-xil tirik organizimlarni o'rganish va muxofaza qilish bilan biologik olimlar shug'ullanadilar. Kitob qo'riqxonasi hududida 500 ortiq o'simlik turlari bo'lib, shundan 12 tasi "Qizil kitob" ga kiritilgan. Qo'riqxonada 200 ga yaqin dorivor o'simliklar o'sadi, 30 ta manzarali o'simlik turlari bor va 30 dan ortiq o'simlik dorivor o'simlik sifatida foydalaniladi. Hayvonat dunyosi 155 turdan iborat bo'lib, shundan ko'pchilik qismi nayob hisoblanadi va "Qizil kitob" da qayd etilgan. Kitob qo'riqxonasida xalqoro etalon deb qabul qilingan nayob geologik maydonlar, shu bilan birga biologik va tarixiy-arxeologik qo'riqlash bilan birga katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan boyliklar ham muhofaza qilinadi.

II - BOB. QASHQADARYO VILOYATIGA IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIF

2.1. Aholisi va mehnat resurslari

Qashqadaryo viloyati o'zining soni bo'yicha respublikamizda Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. U ayni vaqtda aholi sonining o'sishi jihatidan Surxondaryo viloyati bilan birgalikda mamlakat demografik va demografik vaziyatida yetakchilik qiladi. Jumladan, agar O'zbekiston aholisi 1989-2010- yillarda 123,8 % ga o'sgan bo'lsa, Surxondaryoda bu ko'rsatkich 139,2 % va Qashqadaryoda 136,0 % ga teng. Shu o'rinda takidlash lozimki, bu ikki viloyat umumrespublika hozirgi demografik vaziyatni shakillantirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Viloyat tabiiy geografik muhitga mos xolda aholi uning hududida bir tekis joylashmagan. O'rtacha zichlik 1 km. kv. ga 91 kishi, bu raqam respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 1,5 marta yuqori. Aholi, xususan, Kasbi (214 kishi), Qarshi (213 kishi), Sharisabz (175 kishi) va Yakkabog' (161 kishi) tumanlarida ancha zichroq jolashgan. Ayni vaqtda bu ko'rsatkich Muborak, Dehqonobod, Mirishkor qishloq tumanlarida ancha past; mos holda 22,29 va 30 kishi.

Aholi soni bo'yicha viloyatda Chiroqchi tumani oldinda turadi (311,4 ming, 2010- yil); Shahrisabz tumanida ham Shahrisabz shahrini qo'shib hisoblaganda, aholi 300 ming kishi atrofida. Shuningdek, Qamashi, Koson, Kitob va Yakkabog' tumanlarining har birida 200 ming kishidan ko'proq aholi soni istiqomat qiladi. Umuman, yuqorida keltirilgan qishloq tumanlari bu jihatda ham respublikamizda alohida ajralib turadi. Aholi soni faqat Mirishkor va Muborak tumanlarida 100 ming kishidan kam, xalos.(2- jadval).

Zichlik ko'rsatkichlarida ham hududiy tafovutlar deyarli shunga mos holda shakillangan; Eng yuqori ko'rsatkich Qarshi, Kasbi, Shahrisabz tumanlarida, past ko'rsatkichlar esa Muborak, Mirishkor va Dehqonobod tumanlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Qarshi tumanida demografik (antropogen), yukning ko'pligi bevosita viloyat markazi atrofida joylashganligi bilan izohlansa, Shahrisabz tumanida

deyarli bunday vaziyat 200 ming aholi soniga ega bo'lgan Shahrisabz shahri tufayli vujudga kelgan.

2-jadval

Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari aholisining tabiiy harakati
(promillida)

τ/p	Qisloq tumanlari	2000 yil			2008 yil		
		Tug'ilish	O'lim	Tabiiy ko'payish	Tug'ilish	O'lim	Tabiiy ko'payish
1	Dehqonobod	27,9	4,9	23,0	25,2	4,1	21,1
2	Kasbi	28,8	4,2	24,6	25,0	4,3	20,7
3	Kitob	28,3	4,3	24,0	27,2	4,2	23,0
4	Koson	28,1	4,0	24,1	27,1	4,1	23,0
5	Mirishkor	25,5	4,3	21,2	23,9	4,1	19,8
6	Muborak	30,7	4,8	25,9	26,1	4,0	21,9
7	Nishon	27,0	2,8	24,2	27,0	4,2	22,8
8	Chiroqchi	33,8	4,5	29,3	28,0	4,2	23,8
9	Shahrisabz	24,6	4,4	20,2	21,1	4,3	16,8
10	Yakkabog'	27,2	4,1	23,1	25,0	4,2	20,8
11	Qamashi	27,3	4,4	22,9	25,7	4,0	21,7
12	Qarshi	24,7	4,2	20,6	26,0	4,3	21,7
13	G'uzor	28,1	4,8	23,3	25,0	5,0	20,0

Jadval qashqadaryo viloyatining statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Keyingi yigirma yil mobaynida, ya'ni 1989- 2009- yillar oralig'ida aholi soni ancha tez suratlarda ko'payib brogan. Muborak tumanida o'rtacha yillik ko'payish 5,75 promilli, Kosonda 4,75 promilli, Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 foizni tashkil qilgan. Nisbatan pastroq demografik o'sish Dehqonobodda (2,45 foiz), Qarshida (2,50 foiz) va Kasbida (2,55 foiz) tumanlarida kuzatiladi. Shu o'rinda etirof etish lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi o'rinni egallaydi. Tuman aholisining bunday tez suratlarda o'sishi nafaqat tabiiy ko'payish, balki aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq (tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasi aholi bu yerga ko'plab ko'chib kelgan).

Yuqori mintaq (Shahrisabz, Yakkabog' va Kitob tumanlari) ko'p jihatdan respublikamizning aholi zich, xo'jaligi intensiv rivojlangan voqa va vodiylarga

o'xshab ketadi. Shu bilan birga aholi zihlik ko'rsatkichlari quyi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi va Qarshi) ham ancha yuqori o'rinlarda turadi.

Viloyatda tabiiy harakat ko'rsatkichlari boshqa hududlarga qaraganda (Surxondaryodan tashqari) sezilarli darajada farq qiladi. Chunonchi, bu yerda tug'ilish koeffitsienti har 1000 kishi aholiga 24,3 kishini tashkil etadi (2009- yil). Eng yuqori daraja 2000- yilda Chiroqchi tumanida bo'lib, bu yerda yaqin 34 kishiga barobar (O'zbekistonda oldingi o'rinda). Muborak tumanida ham tug'ilish ancha yuqori -30,7 promille. Ayni vaqtda umumiy tug'ilish koeffitsienti Shahrisabz tumanida past, Qarshi shahrida esa u 16,7 promille.

Qayd qilish lozimki, Qashqadryoda ham tug'ulish kamayib bormoqda, biroq bu jarayon mamlakatning boshqa viloyatlarga nisbatan asta-sekinlik sodir bo'lmoqda (3- jadval). Bunday holatni Surxondaryo viloyatida ham kuzatish mumkin. Demak, ularning bir iqtisodiy rayonga birlashtirilishi geodemografik omil bo'yicha ham asoslangan. Umuman olganda, jadval tahlili viloyat aholisining tug'ulish darajasida katta tafavutlar ko'rsatmaydi, eng yuqori va eng past ko'rsatkichlar qishloq tumanlari miqyosida 2.8- 5 promillega barobar xolos, vaholanki, 2000-yilda bu farq 9.2 promillega teng bo'lgan.

3-jadval

Qashqadaryo viloyati qishloq aholi punktlarining tarkibiy tuzilishi.

Qishlolar, aholi soni bo'yicha	Qishloq aholi punktlari		Aholisi	
250 kishigacha	46	4,4	7693	0,5
251- 500	129	12,3	51284	3,6
501- 1000	310	29,6	230546	15,9
1001- 2000	369	35,3	515004	35,6
2001- 3000	105	10,1	255843	17,7
3000 kishi va undan ortiq	87	8,3	386418	26,7
Viloyat bo'yich jami	1046	100	1446848	100

Jadval Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Aholi o'lim koeffisientida ham katta raqamlar qayd etilmagan. U 2008- yilda G'uzor tumanida 5 promille, Qamashi va Muborakda 4 promilleni ko'rsatgan. Aholi tabiiy harakatining yakuni, ya'niy, tabiiy ko'payish esa ko'proq tug'ulish

darajasi ta'sirida shakillangan, eng yuqorisi Chiroqchida (23.8 promille), eng pasti esa Mirishkorda (19.8promille) qaydetiladi.

Migratsiyaning aholi soni o'sishiga ta'siri uncha kuchli bo'lmasada biroq u salbiy. Masalan: 1997-yilda shahar joylarda migratsiya qoldig'i minus 1440, 1998-yilda 1765 kishini tashkil etgan. Qiashloq joylarda bu ko'rsatkich, yuqoridagilarga mos xolda minus 2910 va 2205 kishidan iborat bo'lgan. 2008- yil natijalariga ko'ra har 1000 kishi hisobiga Dehqonobod tumaniga 6 kishi kelgan va 4 kishi ketgan, migratsiya qoldig'i 2 kishini tashkil etgan. Nishon tumanida kelish koeffisienti 8 kishi, ketish 5 promille, migratsiya natijasi 3 promille yoki 0.3 foizni tashkil etad. Qizig' shundaki, Qashqadaryo viloyatining akasariyat qishloq tumanlari va Qarshi shahrida aholi migratsiyasining natijasi ijobiy bo'lgan. Masalan, U 2008-yilda faqat Yakkabog', Muborak tumanlarida salbiy natijani ko'rsatgan, xalos (-1 promille), vaholanki, respublikamizning boshqa qishloq joylarida bunday vaziyat juda kamdan kam uchraydi (Andijon va Buxoro viloyatlari bundan mustasno). Shuni ta'kidlash joizki Quyi mintaqaning ayrim tumanlarining aholisi (Masalan: Muborak, Kasbi, Nishon, Mirishkor) asosan migratsiya natijasida shakillangan.

Viloyatning umumiy urbanizatsiya darajasi 43.6 foiz bu respublika ko'rsatkichidan ancha past (51.7 foiz). Viloyatda hammasi bo'lib, 12 shahar, 123 ta shaharcha bor. Ulardan Qarshi O'zbekistonning 17 ta katta shaharlari qatoriga kiradi (250 ming kishidan ziyod aholisi bor). Shahrisabzda 95 ming, Kosonda 62 ming aholi yashaydi. Qamashi va Kitob shaharlarida 35-40 ming kishi atrofida aholi istiqomad qiladi, Qolgan shahar va shaharchalarda yuqoridagilarga nisbatan kam.

2009-yilda “Qishloq” Davlat dasturi qabul qilinishi munosabati bilan viloyatning 119 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi. Natijada, umumiy urbanizatsiya darajasi 2008-yildagi 24.6 foizga teng bo’lgan holda, u birdaniga 19 foizga oshdi. Yangi shaharchalar (agrosaharchalar), ayniqsa, Shahrisabz, Qarshi, Kitob va Yakkabog’ tumanlarida ko’p. Jumladan, Shahrisabzda bunday unvonga 18 ta, Qarshida 15 ta, Kitobda 14 ta, Yakkabog’da 13 ta qishloqlar shaharcha maqomiga ega bo’ldi. Ma’lumki, Qashqadaryoning yuqori zonasida joylashgan qishloq tumanlarida intensiv sug’orma dehqonchilik nisbatan ozroq yangi shaharchalar, Mirishkor (3ta) va Dehqonobod tumanlarida (2ta) paydo bo’lgan. Yangi shaharchalarni aholi soni bo’yicha eng kattalari: Denov -14.9 ming kishi, Fazli -10.1 ming kishi (Kasbi tumanida), Yangi Mirishkor -14.6 ming kishi, Pomuk -11.8 ming kishi (Mirishkor tumanida), Karlik -14.9 ming kishi (Mubork tumanida), Krashina -9.8 ming kishi (Dehqonobod tumani) va boshqalarini kiritish mumkin.

Viloyatda 1046 ta qishloq aholi punktlari mavjud, qishloq fuqorolar yig’inlari 148 ta. Dehqonobod, Qamashi, Kitob, Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabog’ tumanlarining har birida 100 dan ortiq qishloqlar bor (eng ko’pi Kitob tumanida - 144 ta). Son bo’yicha eng oz qishloqlar Muborak (15ta), Mirishkor (23 ta) va Nishon (30 ta) tumanlarida. Bu ma’muriy hududlarining barchasi yangi yerlarni o’zlashtirish munosabati bilan tashkil etilgan.

Qishloq aholi va aholi punktlari geografiyasining asosiy xususiyatlari tabiiy sharoiti va uning ta’sirida xo’jalik tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi va ixtisoslashuvi bilan tavsiflanadi. Masalan: Shahrisabz tumanlarida nisbatan katta qishloqlar, tog’ va tog’ oldi hududlarida esa kichikroq qishloqlar joylashgan.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahlilidan ko’rinib turibdiki, viloyat qishloq aholi geografiyasi asosan o’rta darajadagi qishloqlar, ya’ni har birida 1000-3000 aholi bor aholi manzilgohlari belgilab beradi. Bunday qishloqlar soni 474 ta yoki jami qishloqlarning 45,4 foizini tashkil qilib, ular viloyat qishloq aholisining 53,3 foizini o’zida mujassamlashtiradi. Katta qishloqlarning demografik salohiyati esa

21,7 foizga teng. Demak, o'rta va katta qishloqlarda deyarli 4/5 mintaqa aholisi yashaydi. Shu bilan birga qayd etish joizki, 500 kishiga ega bo'lgan qishloqlar soni ham kam emas – 275 ta, ammo ularda bor yo'g'i 4 foizdan ortiq aholi yashaydi, xalos. Ma'lumki, „Qishloq“ Dasturida ko'rsatilgan talablarni amalgam oshirishda, xususan, ta'lim sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy infra tuzilmalarni hududiy tashkil etish va rivojlantirishda, eng avvalo aholi punkitlarining katta-kichikligi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan bunday qishloqlarda mazkur muammolarni hal qilish ancha qiyin chiliklarga uchraydi.

1-yanvar 2010- yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, qashqadaryoda mehnatga layoqatli aholi soni 1434 ming kishi. Shundan 900,5 ming kishi iqtisodiy faol hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlarida band aholi soni 940,2 ming kishi. 2009-yil yakunlari bo'yicha bir yilda 5,7 ming kishilik yangi ish o'rinlari yaratilgan (asosan qishloq joylarda). Biroq shunga qaramasdan, viloyatda, hususan, uning aholisi zich tumanlarda mehnat resurslaridan to'liq foydalanish va mehnat bozori faoliyatini yashilash muhim muammodir.

Iqtisodiyotda band aholining katta qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi (35-40 foiz). Shu bilan birga ijtimoiy sohalarda ham bu ko'rsatkich ancha yuqori, sanoat, transport va aloqada esa u pasroq. Umumiy holat viloyat urbanizatsiya darajasini o'zida aks ettiradi.

Xo'jaligi: Qishloq xo'jaligi. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industrial yo'nalishga ega. Qashqadaryo viloyatining yer fondi katta, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar 2251,9 ming gektar, shundan haydalaniladigan yerlar 550 ming gektar bo'lib qolganlari bahori (lalmi) kor dehqonchilik qilinadigan yerlar.

Viloyat agrar soha (qishloq xo'jaligi) ham yashi rivojlangan. 2009- yilda. Barcha toifadagi xo'jaliklarda yaratilgan qishloq xo'jaligi avvalgi yillarga qaraganda 3,4 foizga ortganni ko'rishimiz mumkin. Jami mahsulot hajmida dehqonchilik 51,8 foizni tashkil qiladi. Umumiy hajimda mintaqa O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarining 8,5 foizini beradi.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibi
(2008 y.)

Qishloq tumanlari	Maydoni, ming ga	Qisloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar, ming ga	Shu jumladan sug'oriladigan yerlar, ming ga	Qishloq xojaligida foydalaniladigan yerlarga nisbatan, foizda,			
				Ekin yerlar	Ko'p yillik daraxtzorlar	Bo'z yerlarr	пичанзор ва яйловлар
Dehqonobod	399,7	255,6	2,3	17,4	0,2	1,4	80,9
Kasbi	65,0	51,1	46,3	87,0	3,7	-	9,3
Kitob	174,5	81,1	16,1	26,2	8,8	1,6	63,4
Koson	188,1	143,7	66,1	50,9	1,6	1,8	45,6
Mirishkor	321,1	276,8	58,2	19,9	0,5	0,8	79,0
Muborak	307,0	250,2	32,1	13,3	0,3	-	86,4
Nishon	211,0	153,5	53,6	33,7	1,3	-	65,0
Chiroqchi	283,7	240,2	25,3	50,6	1,1	3,7	44,6
Shahrisabz	166,4	71,8	22,0	34,3	6,1	0,7	58,9
Yakkabog'	110,1	96,3	29,4	40,6	5,0	2,3	52,1
Qamashi	267,0	133,1	29,9	47,0	1,4	0,01	50,9
Qarshi	91,0	64,8	43,3	67,8	3,9	-	28,3
G'uzor	265,6	228,7	32,6	27,0	0,4	0,3	72,4
Viloyat bo'yicha	2849,2	2046,8	457,3	33,1	1,6	1,1	64,2

Manba: "Albom sel'skoxozyaystvennix kartrespubliki Karalpakiston I oblasti Uzbekistana" – Tashkent, 2008.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2049 mingga yoki jami maydonga nisbatan 78,1 foiz. Bu cho'l hududida joylashgan boshqa mintaqalar-Qoraqolpog'iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlariga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichlar hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlar 457,3 mingga, bu jami qishloqda foydalaniladigan yerlarning 23,3 foizi demakdir. Bu boradagi intensivlik koeffisienti past- 23,3 ga teng. Sug'riladigan yerlar ulishi eng yuqori Kasbi tumanida – 90,6 foiz; ikkinchi o'rinda Qarshi tumani turadi – 66,8 foiz

Nishon, Koson, Shahrisabz, Yakkabog', va ayniqsa, Dehqonobod tumanida u juda past ko'rsatkichga ega (atiga 1,0 foizga yaqin).

Jami ekin maydoni 481,3 ming bo'lib, uning 415,7 ming gektari fermer xo'jaligida. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar tarkibida ekin maydonlari 1/3 qismini tashkil qiladi. Bu xususida Kasbi (87,0 foiz), Chiroqchi (50,6 foiz), Qarshi (40,6 foiz) tumanlarida oldinda, Muborak (13,3 foiz), Dehqonobodda (17,4 foiz) va Mirishkor (19,9 foiz) oxirgi o'rinda turadi. Dehqonobod tumani qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 80,9 foizi yaylov va pichanzorlar bilan qoplangan. Muborak, Mirishkor, G'uzor tumanlarida ham bunday yerlar ko'p (4-jadval). Boshqa ekinlar maydoni 2009 yilda 241,2 ming gektar bo'lib, uning 205,7 ming gektarga bug'doy ekilgan.

Xosilning 86,6 foizi fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Bug'doy barcha tumanlarda, shuningdek, Chiroqchi, Qamashi va Yakkabog' tumanlarida lalmikor yerlarga ham ekiladi.

Qishloq xo'jaligining ikkinchi yetakchi ekini – paxta 160,4 ming gektarni egallaydi (2008- yilda 173 ming gektarga, 2000-yilda 150 ming gektarga). 2009-yilda 401 ming tonna paxta yetishtirilgan, bu oldingi yilga qaraganda qariyb 50 ming tonnaga kamroq, xosildorlik 23,4 s/ga, (2008-yilda -26,0 s/ga).

Kartoshka 5,5 ming gektar yerga ekilgan, yalpi xosil 114,4 ming tonna; sabzavod maydoni 14,6 ming gektarga, xosil 82,3 ming tonna. Yem-hashak ekinlari 32,1 ming gektarni egallaydi, uning yarmidan ko'proq'i beda bilan band. Mevalar maydoning 10,2 ming gektarga, yalpi xosil 63,5 ming tonna. Bog'dorchilik tog' va tog'oldi hududlarda joylashgan (Shahrisabz, Yakkabog',

Kitob, Qarshi va boshqalar) tumanlarda rivojlangan. Bu yerlarda uzim yetishtirish va sabzavodchilik, cho'l mintaqasida esa polizchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar ham yo'lga qo'yilgan. Uning umumiy maydoni 6,4 ming gektarga, xosil 42,1 ming tonna (2009-yil). Qashqadaryo o'zining sershira uzumi, qora anjirlari bilan mashhur. Kitob tumani o'zining anorlari bilan ham mashhur uni yetishtirishda "Varganze" davlat xo'jaligi mavjud.

Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligining yana bir muhim tarmog'i chorvachilikdir. 01.01.2010-yil ma'lumotlariga qaraganda, viloyatda 972,1 ming bosh qora mol, 2966 ming bosh qoylar va echkilar boqiladi. Mintaqa agrosanoat majmuyida 167,3 ming tonna tirik vazinda go'sht, 617,0 ming tonna sut, 171,2 mln dona tuxum, 5,0 ming tonna jun, 121,5 ming tonna koqako'l terilari, 2,6 milon tonna pilla olinadi (2009- yil.). Taqqoslash uchun ba'zi ma'lumotlar (2000- yilda.); umumiy ekin maydoni 461 ming gektarga yoki respublikaga nisbatan 12,2 foiz g'alla maydoni 202 ming ga (respublikada birinchi o'rinda), paxta maydoni 150 ming gektarga, yem-xashak maydoni 55 ming gektarga, yirik shohli qoramollar soni 580 ming bosh (2- o'rinda), qo'y va echkilar 1,9 mln bosh (1- o'rinda), qorako'l terisi 110 ming dona, pilla 1,8- 1,9 min tonna. Bundan 9 yil avval 34 foiz g'alla, 32 foiz paxta, 12 foizi yem- xashak, 2 foiz sabzavotchilik bilan band bo'lgan.

Qishloq xo'jalik geografiyasida Koson (11,2 foiz), Chiroqchi (10,7 foiz), kabi tumanlari yetakchi, Dehqonobod va Muborak tumanlari esa bir muncha orqada. Aholi jon boshiga hisoblaganda ko'rilayotgan ushbu yilda viloyatda o'rtacha 417,6 ming so'mlik mahsulot yaratilgan. Bundan yuqori ko'rsatkichlar Mirishikor, Muborak, Kasbi, Koson tumanlarida, pastlari esa Kitob, Yakkabog', Dehqonobod tumanlarida qayd etiladi (5-jadval).

Viloyatda jami 29785 ta fermer xo'jaliklar mavjud, ularga 717,1 mingiga yer birlashtirilgan va 155,9 ming kishi ishlaydi. Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari tarkibida fermer xo'jaliklarining hissasi o'rtacha 40,6 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Dehqonobodda juda past (4,2 foiz), Nishon va Mirishkor tumanlarida esa bu hissa juda baland (63,1 foiz). Hududiy farqlar asosan agrar sohaning

ixtisoslashuviga bog'liq. Odatda, dehqonchilik, xususan paxta ekishda fermerlar yetakchilik qiladi.

5-jadval

**Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga ba'zi bir mahsulotlar chiqarish
va xizmatlar (2009- yil ming so'm)**

Tr	Tumanlar	Sanoat	XIM	Qishloq xo'jaligi	Chakana savdo aylanmasi	Pullik xizmatlar
1.	Dehqonobod	46,0	12,8	348,3	241,9	49,4
2.	Kasbi	315,9	13,8	659,8	119,3	38,0
3.	Kitob	93,7	51,3	329,7	327,7	152,4
4.	Koson	185,0	141,2	543,8	308,9	95,7
5.	Mirishkor	413,2	39,9	934,1	181,6	62,6
6.	Muborak	27282,4	49,4	741,3	341,0	227,2
7.	Nishon	443,6	21,4	734,5	260,4	88,4
8.	Chiroqchi	76,7	35,4	373,4	148,4	48,7
9.	Shahrisabz	255,5	219,6	238,9	211,6	81,8
10	Yakkabog'	421,5	58,5	399,0	292,6	100,1
11	Qamashi	229,5	35,8	478,0	223,6	89,5
12.	Qarshi	215,0	30,6	430,8	156,6	100,1
13	G'uzor	8978,4	16,1	433,4	239,0	99,0
		2211,4	523,2	37,2	1635,0	320,3

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yer maydonlari va ularda ishlaydigan hodimlar soni ham bir xil emas. Masalan Muborak tumanida 1 ta fermerga 68,3 gektar yer va 7,2 kishidan ish xodimlar to'g'ri keladi (viloyatda o'rtacha 24,1 va 5,2 kishi). Shahrisabz tumanida bu ko'rsatkichlar, mos, ravishda, 12,9 va 4,3; Qarsh tumanida 14,5 va 67,0. intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda fermer xo'jaliklarning yer maydoni kam, ishlovchilar soni esa ko'p bo'ladi. Jumladan, Kasbi tumanida har bir fermer xo'jaligiga 19,4 kishi ishlaydi, vaholanki, Dehqonobodda bu ko'rsatkichlar 34,7 va 2,4 kishini tashkil qiladi.

Hududiy ixtisoslashuv jihatidan qaraganda, Yuqori zona yoki Shahrisabz guruh tumanlarida paxtachilik, bog'dorchilik va g'allachilik, Quyi zonada, ya'ni Qarshi dashtida paxtachilik yaxshi rivojlangan. Chorvachilik, xususan, qo'y va echkilarni boqish cho'l va tog'oldi hududlarda ko'proq tarqalgan. Viloyat markazi hamda Shahrisabz atrofida shahar atrofi qishloq xo'jaligi, sabzavot va kartoshka, ko'katlar yetishtirish yanada rivojlagan.

Sanoati. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industrial yo'nalishga ega. Yaqin kelajakda uning industrial- agrar xususiyatni olishga tegishli imkoniyatlar mavjud bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda viloyat yuksak iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. U respublika milliy iqtisodiyotida o'ziga xos „lokomotiv“ vazifasini bajaradi. Bu yerda neft-gaz, tog' - kon kimyosi yaxshi rivojlangan.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi sanoati mahsulotlarining 7,8 foizini beradi. 2009- yil yakunlariga ko'ra, sanoatning ichki tuzilishi quyidagicha; yoqilg'i sanoatining ulishi (mahsulot qiymati bo'yicha) 84,7. Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti yuksak salohiyatga ega. Yaqin kelajakda uning industrial xususiyatini olishga tegishli foiz, yengil sanoat-7,8 foizni, oziq- ovqat 3,5 foizni un- krupava omuxta yem sanoati- 2,6 foizni tashkil etadi. Taqqoslash uchun; 2000 yilda yuqoridagi ko'satkichlar, mos xolda, 56,4; 81,1;9,2 va 2,6 foizni tashkil qilgan. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, so'nggi o'n yil mobaynida mintaqa sanoatining „A“ qismi, ya'ni ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish yoki og'ir sanoat jadal rivojlanib brogan. Bu ham bo'lsa viloyat iqtisodiyotini yanada Industriyalashtirishning natijasi sanaladi.

Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotning ichki takibi ham uning iqtisodiyotini tobora industrialagrar yo'nalishga o'tib borishini asoslab beradi. Jumladan , 2008- yil yalpi hududiy mahsulotning 33,0 foizi sanoat ishlab chiqarishga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2009- yil u 35,4 foizga barobar bo'lgan. Qurilish YIM niong 6,6 foizini, transport va aloqa 4,6 foizini, savdo va umumiy ovqatlanish 4,4 foizini, soliqlar 8,6 foizini taminlaydi. Ayrim boshqa mintaqalarga qaraganda bu yerda qishloq xo'jaligining ulishi pastroq- 20,0 foiz, vaholanki, bu ko'rsatkich Surxondaryoda -39,3 foiz, Sirdaryoda -41,2 foiz, Jizzaxda-39,7 foiz, Samarqandda -39,3 foiz va boshqalar. Ayni vaqtda bu yerda mashinasozlik ancha sust rivojlangan; kimyo va elektor energetika sanoatiga esa katta etibor qaratilmoqda.

_Sho'rtan gaz majmuasi, Dehqonobodda qurilayotgan kaliy zavodi, birinchi navbatda ishga tushirilgan Tollimarjon IES fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, viloyat energetika bazasida Muborak issiqlik energetika markazi ham muhim o'rin tutadi.

2009- yilda sanoat mahsuloti 2008- yilga nisbatan taqqoslama narhlarda 16,5 foizga ko'paydi. Ayni shu yilda bu maskanda jami 116 ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib (yiriklari 41 ta), ularning barchasida band bo'lgan ishchi xodimlar 31,9 ming kishini tashkil qilgan. Bir yilda tahminan 1,6- 2,0 mln tonna neft, 54,2- 57,0 mlrd metr kub tabiiy gaz, 2,0 mln tonna atrofida gaz kondensati (suyultirilgan gaz), 262 tonnaga yaqin oltingugurt, 129,4 ming tonna polietilen, 1,2 mln metr kub ip- gazlama, 148- 154 ming tonna paxta tolasi, 25- 35 ming tonna o'simlik yog'i, 23- 24 mln shartli konserva, 182 ming tonna un va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

6 - jadval

Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy indikatorlari
(aholi jon boshiga, 2009 yil)

Qishlor tumanlari	Sanoat maxsuloti	XIM	Qishloq xo'jalik maxsuloti	Kapital qoyilmalar	Pudrat ishlari	Chakana savdo	Pullik xizmat
Qarshi shahri	1,341	4,780	0,089	0,622	4,129	4,435	2,899
Dehqonobod	0,026	0,117	0,834	1,898	0,677	0,656	0,447
Kasbi	0,180	0,126	1,580	0,154	0,531	0,323	0,344
Kitob	0,053	0,469	0,789	0,151	0,847	0,889	1,379
Koson	0,106	1,291	1,302	0,326	0,705	0,838	0,866
Mirishkor	0,236	0,365	2,237	4,045	0,507	0,492	0,566
Muborak	15,950	0,451	1,775	7,757	2,702	0,925	2,056
Nishon	0,253	0,196	1,759	3,265	0,843	0,706	0,800
Chiroqchi	0,044	0,324	0,894	0,099	0,273	0,402	0,441
Shahrisabz	0,146	2,007	0,527	0,132	0,794	0,845	0,740
Yakkabog'	0,241	0,535	0,955	0,174	0,526	0,794	0,906
Qaashi	0,125	0,327	1,145	0,180	0,380	0,606	0,810
Qarshi	0,131	0,280	1,032	0,428	0,825	0,425	0,906
G'uzor	5,132	0,147	1,038	1,415	0,780	0,648	0,896
Viloyat bo'yicha	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan.

Nisbiy ko'rsatkichlarda hisoblaganda Qashqadaryoga O'zbekistonda qazib olinadigan neftning (gaz kondensati bilan birga) 95 foiz, tabiiy gazning 92 foizi va

oltingugurtning deyarli 100 foizi to'g'ri keladi. Shu o'rinda qayd etish joizki, bundan 9 yil muqaddam mutloq ko'rsatkichlarning bazilari ancha yuqori bo'lgan. Masalan, 2000- yilda neft qazib olish 3,6- 4,0 mln tonna, suyultirilgan gaz 3,5 mln tonna, ip-gazlama 5,0 mln kv. metrdan ziyodroq, konservalar 75 mln shartli bankani tashkil qilgan; faqat paxta tolasi va o'simlik yog'ini ishlab chiqarish bu davirda ko'pygan.

Bundan xulosa qilish mumkinki, viloyatning yoqilg'i sanoatidagi „siljishlar“ respublika umumiy yoqilg'i –energetika sanoatiga jiddiy tasir ko'rsatgan. Shu bilan birga, ip –gazlama hamda meva konservalar ishlab chiqarish hajmining qisqarishini ham ijobiy baholab bo'lmaydi. Paxta hosilining, jumladan, paxta tolasini ishlab chiqarishining ortib borishiga qaramasdan, uni qayta ishlash hajmi, ip-gazlama mahsulatlarini tayyorlash juda katta miqdorda qisqargan. Albatta, bu mintaqada ham vaziyat qoniqarli.

Sanoatning hududiy tashkil etilishida Qarshi, Shahrisabz tuman gurihlari katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga Muborak (IEM, gaz kimyo majmuasi), Koson (yog'- ekistraka, paxta tozalash va g'ish zavodi), Sho'rtan (neft- gaz - kimyo), Tollimarjon (IES), Ko'kdumaloq (neft), Chiroqchi (konserva zavodi) va boshqa ko'plab sanoat punkitlarining ahamiyati ham oshib bormoqda. Qarshi va Qamashida to'qimachilik korxonalari, Shahrisabzda ip- gazlama („Oqsaroy to'qimachi“ QK, ipakchilik), aksariyat tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari mavjud.

Viloyatda gaz kondensatini Muborak neft- gaz konlari, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, „Sho'rtan neft- gaz“ shuba korxonasi, Sho'rtangaz kimyo majmuasi hamda „Hisor neft- gaz“ qo'shma korxonalari ishlab chiqaradi. Aynan shu korxonalar neft va tabiiy gaz konlaridan keng foydalanishadi. Ularning orasida gaz kondensati bo'yicha Muborak neft- gaz korxonalari boshqarmasi va Sho'rtan neft- gaz va tabiiy gaz qazib olishda Muborak neft gaz konlari yetak chilik qiladi. Suyultirilgan gazning yarmiga yaqinini Sho'rtangaz kimyo majmuasi yetkazib beradi, ikkinchi o'rinda Sho'rtan neft-gaz sho'ba korxonasi turadi. Oltingugurtning deyarli 100 foiziga yaninini Muborak gazni qayta ishlash zavodi taminlaydi.

Boshqa hududlarda bo'lganidek, bu yerda ham bozor islohotlariga katta e'tibor berilmoqda. Ammo viloyat sanoatini xususiyalashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish o'ziga xos xususiyatga ega. Sababi sanoatning asosiy yoqilg'-energetikaga ixtisoslashganligi, ya'ni strategik ahamiyat kasb etishi tufayli nodavlat sektori bu sohada nisbatan pastroq.

2009- yilda kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi 2193 mlrd so'mni tashkil qiladi. Ularning katta qismi Mirishkor (23,0 foiz) va Muborak (20,6 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, Nishon (13,8 foiz) va G'uzor (14,6 foiz) tumanlarning investitsion salohiyati ham yuqori. Eng so'ggi yillarda Dehqonobod tumanida respublikamizda yagona kaliy zavodini qurish munosabati bilan bu hududga yo'naltirilgan investitsion mablag'lar ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Kasbi, Qamashi qishloq tumanlarida 2009- yilda tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar ancha past bo'lgan. Ushbu sanoat 13,6 foizi viloyat markazi- Qarshi shahriga to'g'ri kel. Muborak tumanida sanoat mujassamlashuvi ko'rsatkichi bundan ham yuqori- 43 foiz ko'rsatkichni tashkil qiladi. Shuningdek, G'uzor tumanida ham sanoat ishlab chiqarish ancha yuqori darajada- 30,6 foizni tashkil qiladi. Demak bu ikki qishloq tumani viloyat markazi bilan birgalikda jami sanoat mahsuloti hajmining 87,2 foizini beradi. Qolgan hududlarda sanoat sust rivojlangan. Bu borada biroz Shahrisabz va Koson tumanlari alohida ajralib turadi, Dehqonobodda esa ushbu makro iqtisodiyot tarmog'i yaqin yillarda yanada takomillashib rivojlanib boradi.

Yengil sanoat korxonalaridan Shahrisabzdagi pillachilik fabrikasi hamda "Hujum" fabrikasini ko'rsatish mumkin. Bu fabrika ipak- kalavalari, paloslar, do'ppi va milliy badiiy buyumlar ishlab chiqildi. Chiroqchida kichikroq badiiy glam fabrikasi qurilgan.

Oziq- ovqat sanoati Qashqadaryo hududiy- ishlab chiqarish majmuyida o'z ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinda turadi. Sanoatning bu tarmog'i moy, go'sht-sut, sharob, konserva, qandolot va boshqa mahsulotlar ishlab chiqiladi.

Qashqadaryo viloyati demografik vaziyati, aholisining tez ko'payib borishi xalq istemol mollari ishlab chiqarish ko'lamini oshirishni taqozo etmoqda.

Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Qashqadaryo umuman olganda butun O'zbekistonda mustamlaka yillarida sidirg'asiga garizantal rivojlanadi. Oddiyroq yo'sinda talqin etadigan bo'lsak, deylik temir yo'l qurilib u viloyatni qoq ikkiga bo'lib o'tkazildi, lekin u tarmoqlanmadi tumanlar va yirik korxonalarga yetkazilmadi. Bu garizantal o'sish, yo'qsa yana oddiy bir misol, shaxsiy tarmoqli ko'p dehqonning 1-2 so'tix yerini ekin ekish uchun bo'sh qoldirish maqsadida imoratni avvalgidek uzun keng bir qavatli emas aksincha ko'p qavatli qilib solish vertikal o'sishni tavsiflaydi.

Prezidentimiz I.A. Karimov yuritayotgan bosiq va izchil iqtisodiy siyosat zamirida anashu ezgu niyat yotadi. Qashqadaryoning peshonasiga ham ayni saodat bunyodkorlik va yaratuvchanlik bitilgan.

O'zbekiston viloyatlarini mamlakat ichki temir yo'llarini tashishni arzonlashtirish iqtisodiy siyosatimizning muhim yo'nalishga aylandi.

Viloyatda transport tizimining turli xillari mavjud. Viloyatdagi temir yo'l transportining uzunligi 401 km. ni tashil etadi (2005- yil). Asosiy temir yo'l magistralari Kogon- Qarshi- Dushanbe, Qarsh- Kitob, Qarshi- Samarqand. Yangi qurilayotgan Toshg'uzor- Boysun- Qumqo'rg'on (umumiy uzunligi 223 km 15 ta bekatlar, 226 ta har- xil yordamchi inshootlar bor) temir yo'lining 106,2 km qismi Qashqadaryo viloyati hududidan o'tadi. 2002- yilyilgacha 31 mlrd so'm (shartnoma narhida) o'zlashtirildi. 2004- yil oktabrgacha ushbu yo'lining 112 km dan ziyod Toshg'uzor- Dehqonobod va Qumqo'rg'on- Boysun qisimlari foydalanishga topshirildi. Ushbu temir yo'l qurilishi munosabati bilan Dehqonobod tumani hududida joylashgan dolamit, toshkesish kor'eri kengaytirildi. Bundan tashqari, yo'l zo'nasida mavjud qazilma boyliklaridan neft, ko'mir, gaz, tuz, mis, qo'rg'oshin konlaridagi xom ashyolardagi sanoat miqyosida ishlab chiqarish imkoniyatlari tug'iladi. Viloyatda jami 13,9 ming km uzunlikda avtomabil yo'llari mavjud. Shundan umumiy foydalaniladigan yo'llar uzunligi 3,4 ming km xo'jaliklar hisobidagi yo'llar uzunligi 10,5 ming km Qashqadaryo viloyati hududidan respublika ahamiyatiga ega bo'lgan Qarshi- Amudaryo (Turkmaniston), Katta O'zbekiston trakti (Toshkent- Termiz), Qarshi-

Buxoro, Qarshi- Samarqand avtomobil yo'llari o'tadi. Qarshidan Toshkent, Termiz, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Denov va boshqa shaharlarga avtobuslar qatnaydi. Yuk tashishda avtomobil transporti oldingi o'rinda turadi. Masalan, 2010- yilda umumiy 36,3 mln. tonna tashilgan yukning deyarli barchasi (30,0 mln tonna) avtomobil transportiga to'g'ri keladi. 2009 yilda jami 296,3 mln. yo'lovchi tashilgan, uning 295,3 mln kishisi avtomobil transportida amalga oshirilgan. Qarshi aeroportidan Qarshi- Maskva- Andijon va boshqa yo'nalishlarda yo'lovchilar tashuvchi samalyotlar qatnovi yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng viloyat tashqi iqtisodiy aloqalari sohasida yangi davr boshlandi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari yildan- yilga kengayib bormoqda. Qashqadaryo neft va gaz konlaridan mamlakatimizning turli rayonlariga hamda qo'shni davlatlarga quvur transporti orqali tashiladi. Rossiya Federatsiyasi, Qozog'istonga gaz yuboriladi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, ko'pgina yirik issiqlik elektor stansiyalariga aynan shu yerdan yoqilg'i yetkazib beriladi. Shuningdek, yaqinda qurilgan Toshg'uzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining ahamiyati katta. Qarshi shahrida yirik aeroport bor, u viloyat axolisining tashqi aloqalariga hizmat qiladi.

Tashqi savdo aylanmasi 273114,7 ming AQSh dollari, shundan eksport 2362815,9 ming va import 371298,8 ming dollor. Demak savdo balansi viloyat foydasiga -1991517,1 ming AQSh dollor, shundan eksport 2362815,9 ming va import 371298,8 ming dollorni tashkil qiladi (2009- yil). Eksport tarkibida asosan yoqilg'i (asosan tabiiy gaz) 90,1, foizni, paxta tolasi 6,0 foizni tashkil qiladi. Bunday eksport tarkibi respublikamizning ko'pgina boshqa viloyatlarida kuzatilmaydi. Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorligining asosiy tarkibi tabiiy gaz hisoblanadi. Bu yerdan kimyoviy mahsulotlar, jumladan, polietilen ham eksport qilinadi. Qashqadaryoda quritilgan meva mahsulotlari ham eksport qilinadi. Bu mahsulotlarni Rossiya Federatsiyasiga eksport qiladi. Yarim tayyor masulot shklida ham bir qancha davlatlarga eksport qilinadi.

Import takibida mashinalar va uskunalar (69,3 foiz) hamda qora va rangli metallar yetakchilik qiladi (22,8 foiz). Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy qismi, „Uzoq xorij“ mamlakatlariga to'g'ri keladi.

2.3.Noishlab chiqarish tarmoqlari. Madaniy tarixi, fan, ta'lim va sog'liqni saqlash.

Qashqadaryo vohasi o'zining madaniy tarixi bilan mashhur. 1990-yillargacha Qashqadaryo hududida paleolit (tosh asri) davrida odamzodning yashaganligi haqida ashyoviy dalillar kam edi. Faqatgina Tanxozdaryo vodiysidan topilgan chaqmoq toshdan ayrim buyumlar, Taxtaqoracha davonida Takalisoy bo'yidagi g'ordan arxealogik D. N. Lev tamonidan muste davriga oid bir nechta tosh buyum topilganligi Qashqadaryo vodiysida tosh davri odamlari yashaganidan dalolat berar edi.

1990- yillarda arxeologlardan P. X. Sulaymanov, A. S. Sa'dullayevlar yuqori Qashqadaryodagi Oyoqchisoy, Quruqsoy vodiylarini o'rganib paleolit davriga oid ashyoviy dalillarni topdilar. Siylontoshda tosh asrining so'nggi davriga oid topilmalar aniqlandi.

Vohada milloddan avvalgi X – VII- asirlar, jez va temir asriga oid Sangitepa, Yerqo'rg'on yodgorliklari topildi. Milloddan avvalgi VII – VI- asirlarda Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Kesh, Nahshab shaharlari paydo bo'lgan va rivojlangan. Qadimgi Baqtriya davlati tarkibiga Qashqadaryo vohasining bir qismi ham kirgan.

Milloddan avvalgi 329- yilda Makidoniyalik Aleksandr qo'shinlari Navtaka (Qashqadaryo) viloyatini bosib olgan. Qashqadaryo bosqinchilarga qarshi ko'tarilgan Spitamen qo'zg'olonining markazlaridan biri bo'lgan. Milloddan avvalgi III – II- asirlarda Qashqadaryo vohasi Slavkiylar, undan keyin Yunon-Baqtriya davlatlari tarkibiga kiritildi. Kidar rahbarligida sharqdan Amudaryo havzasiga kirib kelib Naxshabni o'ziga vaqtincha qarorgoh qilib turdilar.

Qashqadaryo VII – VIII- asirda iqtisodiy hayot rivojlangan. Bir necha yillar davomida Sug'd, Kesh podsholari tomonidan idora qilingan. Kesh podshosi Shasheppi (Shishpar) davrida zarb qilingan tanga pulda „Ixshid Shishpar“ degan yozuv bo'lgan. Arablar qo'shini VII- asirda ilk bor Qashqadaryoga bostirib kelib, Naxshab va Kesh shaharlarini va ular atrofidagi qishloqlarni qo'lga kiritdilar.

Qashqadaryo viloyati ko'xna tarixi, qadimiy madaniyati yodgorliklari bilan mashhur. Viloyatdan buyuk olimlar, adiblar va shoirlar, mashhur sanatkorlar, baxshilar, xalq artistlari, rassomlar yetishib chiqqan.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan birinchi kunlardan oq hurfikirlilik, mutelik va juratsizlikdan xoli bo'lgan, o'z bilim va kuchiga ishonib yashaydigan insonni tarbiyalashga katta ahamiyat berib, jamiyatda sog'lom turmish tarzini qaror toptirishga qaratilgan qator islohatlar amalga oshirildi. 2004- yil 21- may PF-3431- sonli “2004- 2009- yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida”gi farmoni munosabati bilan Qashqadaryo viloyatida ham boshqa viloyatlar kabi fan va ta'lim sohasida katta o'zgarishlar qilindi. Ushbu viloyatda 2004-2005- o'quv yilida 1094 umumiy talim maktabi qurilib va qayta tamirlanib o'quvchi yoshlarga topshirildi. shu jumladan 34 ta ixtisoslashgan maktabda ixtidorli o'quvchilarni tanlab kelajak avlodga yetuk kadrlar va malakali o'qituvchilar tayyorlab yetishtirib chiqarishda malaka-mxoratli ustoz va murabbiylar tomonidan dars berishni joriy qilingan. Bundan tashqari bu hududda 4 ta maxsus maktab, 3 ta gimnaziya va boshqa maktablarda 620 mingdan ortiq o'quvchi yoshlar ta'lim oladi. Viloyatda 62 ta kasb- hunar kolleji (49ming ta talaba) barpo etilib, nafaqat viloyat balki mamlakat iqtisodiyoti uchun katta hissa ko'shmoqdalar. Hozirgi kunda korxona va tashkilotlarda ushbu kollej o'quvchilar hizmat qilib kelmoqdalar, va 4 ta akademik litsey (2 ming o'quvchi), 18 ta bolalar musiqa maktabi (1.7 ming o'quvchi) ham qayta rekonstruksiya qilinib o'quvchi yoshlarga topshirildi. Ijtimoiy himoya sifatida kam ta'minlangan bolalarni himoya qilish maqsadida turli xil o'quv qurollari, kiyim bosh va boshqalar bilan ta'minlanmoqda. Aqlan zaif va nogironlarga ham alohida maktablar qurib topshirilgan. Ushbu yoshlarni ham qiziqishlarini inobatga olib

maktabda turli to'garaklar ochib berilgan. Ko'ngli yarim bollarga ham 3 ta mehribonlik uyi zamonaviy talab darajasida qurib topshirilgan.

Qashqadaryo viloyatida 2 oliy o'quv yurti: Qarshi uiversiteti, Qarshi muxandislik- iqtisodiyot institute mavjud bolib, bu o'quv yurtlarida 10,4 mindanortiq talaba yoshlar taxsil olmoqda. Bu oily o'quv yurtlari ilmiy pedagoglar tarbiyalash bilan birga turli xil kasbga yo'nalgan mutaxasislar tayyorlab chiqarmoqda. Qarsh universiteti ilmiy pedagog kadrlar tayyorlaydigan oily o'quv yurti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan 1992- yil 15- martda Qarshi pedagogika institut negizida Qarshi shahrida tashkil etilgan. Yetuk pedagogik kadrlarga katta imkoniyatlar berilmoqda. Bu yoshlar ham o'zlarini qilgan ishlari bilan ko'rsatmoqda. Chunonchi, 2010- 2011- o'quv yili Davlat stpendiyanti Abbosxonova Nilufarxon Abbosxon qizi 1989- yil 11- iyulda Qashqadaryo viloyatida tug'ligan Qarshi davlat unversiteti 4-kurs talabasi fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirish bilan birga, respublika va unversitet miqyosidagi turli ilmiy amaliy anjumanlarda, umumxalq bayram va tadbirlarida ham o'zining bilimi ixtidori bilan faol ishtirok etib kelmoqda bir nech sheriy to'plamlar chop etgan. 2008- yilda O'zbekiston Respublikasi Zulfiya nomidagi davlat mukofoti savrondori bo'lgan. Ingliz tilini mukammal o'rgangan.

Hozirgi kunda "Qashqadaryo vohasi aholisining an'anaviy taomlari transformatsiyasi (XX asr misolida)" mavzusida izlanish olib bormoqda.

Ushbu yoshlarni bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish va ular orasida ixtidorli talaba yoshlarni alohida tarbiyalash maqsadida unversitetida "Qarshi unversiteti" gazetasi (1966- yil), "Nasaf ziyosi" jurnali (2004- yil) joriy qilindi. Viloyatda ushbu kadrlarni yetishtirib chiqarish maqsadida mamlakatimizda "Yilning a'lochi o'qituvchisi", "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik tanlovlarning joriy qilinishi o'qituvchilarning faol bo'lishiga undaydi. Bunga birgina misol qilib Hurshid Boqiyev iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi. Yilning eng yaxshi o'qituvchisi unvoniga sazovar boldi (2010-yil).

Sog'liqni saqlash ishlarida ham viloyat alohida ahamiyat kasb etadi. Bu mintaqada 94 ta kasalxona (12,1 ming o'rin), 395 ta virachlik ambultoriya-

poliklinika muassasalari, ambulatoriya va boshqa tibbiy muassasalar, 221 ta bolalar poliklinikasi va xonalari, 199 ta qishloq va shahar virachlik punkiti, 368 ta sheraksherlik punkti, 27 ta qishloq uchastka kasalxonasi, 90 ta qishloq virachlik ambulatoriyasi mavjud. Ushbu tibbiy muassalarda 53,6 mingga yaqin vrach (har 10 ming kishiga 21,9 vrach), 23,6 mingdan ortiq o'rta tibbiy xodimlar ishlaydi.

Davlat dasturiga asosan, viloyatda Davlat tez tibbiy yordam ilmiy markazi Qarshi bo'limi (220 o'rin) va barcha tuman markaziy kasalxonalari qoshida uning bo'limlari (410 o'rin) tashkil etgan, hamda zaruriy tibbiy va texnik jihozlar bilan ta'minlangan. Tibbiyot sohasida xususiy va yakka tartibda va boshqa nodavlat sektorlarida 131 ta tibbiy muassasasi faoliyat ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida 3ta sanatoriya ishlab turibdi. Qashqadaryo aholisi salomatligi uchun katta yordam berib kelmoqda. Ushbu maskanlarda shifo izlab kelganlar davo topib kelmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport. Qashqadaryo viloyatida ham qadimdan jismoniy tarbiya va sport bilan shug'illanib kelishgan. Masalan, Amir Temur ham aynan shu hududda yoshab o'tganligi ma'lum. Amir Temur yoshligidan harbiy o'yinlarga qiziqqan. U do'stlari bilan o'zining ko'p vaqtini harbiy o'yinlarga ajratgan, privardida Temurning o'zi va uning do'stlari ham katta jismoniy va harbiy tayyorgarlikdan so'ng buyuk lashkarboshi bo'lib yetishgan. Ular temuriylar imperiyasining tashkil topishida, yuksalishda va mustaxkamlashda katta ro'l o'ynaganlar. Amir Temur jismoniy tarbiya va sportga katta etibor bergan. Qashqadaryo xalqi miily sport o'yinlari asrlar davomida shakillanib kelgan. Sport o'yinlarining milliy turlari malaka va mahorotini jismoniy harakatchanligini mukammallashtirish uchun foydalaniladi. Milliy an'analarda, jismoniy sifat shaklida namayon bo'lib, ushbu o'yinlarda o'z ifodasini topib millatimiz genafondini rivojlanishga vosita sifatida qollanilgan. Milliy sport o'yinlaridan: oq terakmi-ko'k terak, kim chaqqon, koptok o'yini, gardishni mo'ljalga olish digish (tuqish) o'yini, "pirr"etdi, supir-supir, to'p tepish, to'p chuqirchaga, doiraga tort, yigirmaga yetkaz, qilichbozlik, qarmoqcha, qo'lingni ber, ko'z bog'lash, podachi, burgut va burgutchka kabi o'yinlarni kiritib o'tishimiz mumkin. Bu milliy o'yinlar

yoshlarning jismoniy chiniqishida katta ahamiyat kasb etadi. Vatanga muxabbatni, xalq sevarlikni, mehr muhabbatlilikni shakillantiradi.

Respublikamizda sportga juda katta etibor berilmoqda. Shuning misoli sifatida viloyat hududida ko'rishimiz mumkin. Prezidentimiz I. A. Karimov mustaqillika erishish ostonasidan boshlab sportni boshqa sohalar qatori etiborli olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi majlisidagi ma'ruzasida "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki sharqona axloq- odob va umumbashariy g'oyalar ruhida komol topgan insonni tushinamiz", deydi. "Sog'lom avlod uchun" ordeni tasis etilganligi, xalqaro hayriya jamg'armasi tashkil etilganligi ham viloyatning aholisining kelgusida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalab yetkazishga hizmat qiladi. Qashqadaryo viloyati sportchilari sportning ko'pturlari (kurash, dzyu- do, karate, futbol, boks, shaxmat, tennis suvda suzish, eshkak eshish, disk uloqtirish, yengil atletika, sinxron suzish va boshqa.) bo'yicha turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etmoqdalar. Farhod Xo'janov, Zokir Sharipov, Shavkat Jo'rayev, Erkin Xoliqovlar dyuz- do bo'yicha nafaqat respublika, osiyo chempionati va jahon chempionatlarida faxirli o'rinlar sohibi bo'lib qaytmoqdalar. Bahrom Avezov kurash bo'yicha Buharestda va Antaliyada jahon chempioni bo'lib qaytdi. Aka- uka Islom Kenjayev va Furqat Kenjayevlar yunon rum kurashi bo'yicha chempionati bronza medali sohibi bo'ldi. Alisher Muhtarov ham dyuz- do bo'yicha faxirli o'rin sohibiga aylangan. Sofiya Kaspulatova karate bo'yicha 3 marotaba Osiyo chempioni unvonlariga sazovar bo'ldilar. Shaxmatchilardan Anvar Rajabov Yaltada bo'lib o'tgan musobaqada faxirli o'rinlar uchun kurashlar olib bordi. Bundan tashqari Fransiya, Ispaniyadagi musobaqalarda ham faxirli o'rin sohibligiga davogarlik qildi. Sarvinoz Ergashyeva Fransiyadagi jahon chempionatlarida qatnashdilar. Bundan tashqari Sarvinoz Ergashyeva 6 marta respublika chempioni bolgan.

Viloyatning "Nasaf", "Mashal", "Sho'rtan" jamoalari futbol bo'yicha O'zbekistonning oily ligasida ishtirok etib kelmoqdalar. Xususan o'tgan 2011-

yilda bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida futbolchilarimiz o'z mahoratlarini ko'rsatib, faxirli 1-o'rinni olib, OFK kubigining sovrindariga aylanishdi. Bu kubkni Qarshining "Nasaf" jamoasi tomonidan qo'lga kiritildi va O'zbekiston bayrog'ini yana bir karra balandga ko'tarilishiga erishdilar.

Hozirgi kunda nafaqat erkaklarni sport bilan shug'ullanishayotganligi, balki ayollar sportiga ham alohida e'tibor qaratib kelinayotganligini kuzatish mumkin. Chunonchi, xotin-qizlar o'rtasida tashkil etilgan "Sevinch" futbol jamoasi ham 2004-yida o'tkazilgan respublika birinchi chempionatining faxirli 1-o'rin sohibasi bo'lishdilar.

Bugungi kunda yosh avlodni muntazam bo'sh vaqtlarini sport to'garaklarida o'tkazishini ta'minlash maqsadida 21 ta stadion, tennis kortlari, bir qancha sport zallari, 8 ta suzush havzalari va boshqa sport maydonlari va klublari mavjud. Ular qayta rekonstruksiya qilinib, yoshlar ixtiyoriga topshirib qo'yilgan. Shu jumladan 26 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyat ko'rsatmoqda. 690 ming kishi (Shu jumladan, qishloq joylarda 614 ming kishi) doimiy ravishda jismoniy tarbiya vasport bilan shug'illanmoqda. Bu sportchi yoshlardan yetuk va malakali sportchilarni yetishtirishda, ularga malakali mutaxassis ustoz va murabbiylar taxsil berib kelmoqda, kelajakda bu yoshlar vatanimiz bayrog'ini yanada balandlarga ko'tarishadi deb umid bildirish mumkin. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, "Azizlarim, allah talo bergan sog'ligimizni asraylik Chunki, sog'lom odamgina chinakkam baxtli bo'ladi, chunki sog'lom odmgina faqatgina sog'lom xalq, sog'lom millat buyuk ishlarga qodir bo'ladi!" deb takidlaydi.

Adabiyoti, matbuoti va san'ati. Qashqadaryo viloyatida qadimdan mashhur allomalar, shoirlar va faylasuflar, yozuvchi va muhaddislar, mohir hattot va tarjimonlar yashab o'tgan. XIX- asir boshlarida Nasaf va Keshda hadisshunoslik va fiqhshunoslik maktablari vijudga kelgan. X –asrda Ahmad ibn Muhammad at-Tayoniy, Hammod ibn Sukur an- Nasafiy, al- Lays ibn Nasr al- Kojariy, XI- asrda Abdulaziz ibn Muhammad an- Naxshabiy, Muhammad ibn Ahmad al- Balaniy, al-

Hasan ibn Ali al- Hamadoniy an- Naxshabiy kabi olimlar islom olamida shuhrat topganlar.

Keyingi davrlarda ham bu ilmiy an'analar muvoffaqiyat bilan davom etilgan. Aziziddin Nasafiy asarlari dunyo xalqlarining ko'p tillariga tarjima qilingan. "Nasafiy" tahallusli bir nech o'nlab ijodkorlarning nomlari ma'lum. Bundan tashqari; Matrudiya kalom maktabining atoqli namoyandalaridan biri Abul Mu'in an- Nasafiydir. Uning "Bahri al- kalom" ("Kalom ilmi bo'yicha so'zlar dengizi") asari kalom ilmi bo'yicha al- moturiya maktabining asosiy manbalaridan biri hisoblangan. Hadisshunos va hanafiy mazhabining taniqli fiqhshunosi Abul Hasan al- Bazdaviy an- Nasafiyning musulmon qonunchiligi asoslari haqidagi "Usuli Bazdaviy" kitobi Sharqda keng tarqalgan, unga ko'plab sharhlar bitilgan. Shu sababli "Faqihu Movarounnahr" va "Ustoz al- amma" unvonlariga sazovor bo'lgan. Fiqhshunos Abu Hafs Najmiddin Umar Nasafiy 100 dan ortiq asar yozgan. Shuningdek, Abul Barakot an- Nasafiy, Abu al- Muti Nasafiy, Hakim So'zaniy, Abu Turob Nahshabiy, Sayido Nasafiy, Nurmuhammad Nasafiy, Shamsiddin So'zaniy, Muayiddin Nasafiy, Shahobiddin Ahmad Nasafiy, Sharofiddin Ahmad Nasafiy va boshqa bir qancha nasafiyllar yashab ijod etganlar.

Nasaf va Kesh allomalari arab (IX-X-asr), fors (IX-XI-asr)tillarida ijod qilganlar. XV-asrdan turkey tillarida asarlar yoza boshlaganlar. Temuriy shahzodalar ijod ahlini o'z ona tillarida yozishga davit etganlar, o'zlari ham turkey tillarida asarlar bitganlar. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayin" asari ana shu ijtimoiy talab zaminida yaratilgan. Ammo, amalda arab va fors tillari ham qo'llanila vergan.

Amir temur va temuriy shahzodalar saltanati davrida Qashqadaryo ilm-fan, madaniyat va sanat rivojlangan. Ushbu vohadan chiqqan ko'pgina yozuvchi va ulamolar turli yillarda poytaxt bo'lgan Buxoro va Samarqandda, ayrimlari esa Hindiston, arab davlatlarida yashab ijod etganlar. Mo'g'illar istelosi davrida ziyolilarning kattagina qismi Hindistondan boshpana topganlar.

Abu Said Abdulkarim as-Samoniyni (1113-67) "Kitob al-Ansob" ("Nisbalar kitobi") asarida VIII-XII- asrlarda yashab o'tgan 180 ga yaqin

nasafiylik olim va shoirlarning nomlari qayd etilgan. Nasaf tarixi va adabiyoti bilan bog'liq bir qancha asarlar, xususan, Abul Horis Asad ibn Hamduvayh al-Barsiniy an- Nasafiyning (928- yil) “Kitob mufoharat ahl Nasaf va Kesh” (“Nasaf va Kesh ahlining iftixorlari haqidagi kitob”), Abu Sa’d Abdurahmon ibn Muhammad al- As- trobodiy al- Idrisiyning (mil. 1015- yil) “Tarixi Nasaf”, Abul Abbos al- Mustag’firi Nasafiyning (961-1041) mufasssal “Nasaf va Kesh tarixi” asarlari bizgacha yetib kelmagan.

Qashqadaryo viloyatida 33 ta gazeta, shu jumladan, 2 ta viloyat gazeta (1935- yil “Qashqadaryo haqiqati”, 2005- yildan “Qashqadaryo”, adadi 5 ming; 1943- yildan “Kashkadarinskaya pravda”, 2005- yildan “Novosti kashkadari”, adadi 1,5 ming), shahar (“Nasaf”), 13 ta tuman gazetalari, 16 ta tarmoq, 1 ta xususiy gazeta shuningdek, “Nasaf ziyosi” jurnali nashir etiladi.

Viloyatda birinchi radioeshittirishlar 1945- yil dekabr oyidan boshlangan. Viloyat radiosi va “Oltin voha” FM radiostansiyasi eshittirishlar olib boradi. Kuniga 1 soatlik, “Oltin voha” FM radiostansiyasi haftada 112 soatlik hajimda eshittirishlar beradi. Qashqadaryo viloyatida 2 ta davlat va 3 ta nodavlat telvideniylari mavjud. 1994-yil 24-avgustdan faoliyat ko'rsatayotgan Qashqadaryo viloyati televideniyesining 1 haftalik ko'rsatuvlari 42 soat, “Yangi asr” telestudiyasining 1 haftalik ko'rsatuvlari 21 soat, Qashqadaryo kabelli telvideniyesining 1 haftalik ko'rsatuvlari 63 soatni tashkil etadi.

Mulla To'ychi Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri Ozbekistondagi dastlabki professional teatlardan biri. Qarshi va Shahrisabz havaskorlik jamoalari asosida Qarshi tumani va maorif mudiri A. Shoibzoda va sozanda A. Qodirov tamomidan 1932- yil 2- avgusda tashkil topgan. 1936- yil davlat teatr maqomi, 1943- yilda atoqli xonanda To'ychi hofiz Toshmuhamedov nomi berilgan. Dastlab truppada N. va J. Sattarovlar, S. Hasanov, N.Ostonova, S.Ro'ziyeva, M. Vafoyev, M.va J. Jaliovlar, T. Melnikova (Lola), va boshqalar ishlagan.

1980- yillar Qarshi tumani hayotida murakkab davr bo'ldi. Shu davr boshida (1981) teatr repertuaridan “Gavhari shamchiroq” (S. Ulug'zoda, A. Muhamedov),

“G’ariblar” (A. Delmar), “Hiylai shariy” (Guntekin), “Toshkentning nozanin malikasi” (H. Muhammad), “To’ydan oldin tomosha” (J. Jabborov, I. Akbarov) kabi spektakllar o’rin olgan. 1986- yil boshda teatr yangi binoga ko’chib o’tdi. Bosh rejisيسيyor bo’lib ishlagan A. Abdunazarov, B. Namozov, taklif qilingan M. Ravshanov, M. Xachturov ancha pasayib qolgan teatr mavqeini tiklashga o’z hissalarini qo’shdilar. Teatr yosh aktiorlar hisobiga mustahkamlandi.

1988- yil 4- oktabrda rejissior Abdurahmon Abdunazarov boshchiligida bir guruh yosh aktiorlar viloyat teatridan ajralib chiqib, “Muloqat” teatr studiyasini tashkil etdilar. Teatr “Temir xotin” (Sh. Boshbekov) spektakili bilan ochilgan. Uning “Jononga bordim bir kecha” (komediya), “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” (tragediyasi), “Mayli saylang” (satira) pesalaridan tuzilgan “Hamzaning noma’lum teatiri” asari yosh ijodkorlarning milliy teatrning unitilgan an’analarini tiklash, sahnaviy talqinlarda tomoshabinlarga bevosita ta’sir etuvchi zamonaviy vositalarni ishga solishdan iborat harakatidan guvohlik beradi. Teatr respublika xalqaro 1- o’rinni oldi. Keyingi spektakllardan “Bahtiyorni uylantiramiz” (E. Sobirov) folklor-etnografik tamoshasi, “Guliy+Edik” (M. Bo’yjiyev) alohida ajralib turadi.

Keyingi yillarda Qarshi tumanida “Tikansiz tipratikonlar”, “Sehirli uzuk”, “Tuhmatchilar jazosi”, “Sohibquron”, “Bir kam dunyo”, “Ajabgul va Rajabgul”, “Bir o’lib ko’raychi”, “Ruhlar isyoni” kabi turli janrda sahnalashtirildi. Umuman mustaqillik davrida Qarshi tumani milliy repertuarga, dramaturglar bilan yangi asarlar ustida ishlashga alohida etibor berilib kelmoqda. Husan Amirqulov, O. Ismoilov, M. To’raqulov, S.Qoraboyev, X. Isroilova, Haqberdi Amirqulov, A. Ro’ziyeva, B. Elmuradov, E. Shodiyev, Q. Berdiyev, M. Shaymardanov, R. Mustafayeva, F. Samiyeva, T. Jalilov, Sh. Omonov va boshqalar yetakchi aktiorlardir. Bosh rejissior Azamat Sattorov.Qashqadaryo viloyati qo’g’richoq teatri 1994- yil 15- martda “Dangasaning holi voy” spektakili bilan ochilgan. Teatr Mulla To’ychi Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri binosi ichida, bir qonotidagi zal maskur teatrga moslashtirilgan. Dastlabki yillarda S. Berdiyev, J. Toshiev, D. Karomov, X. Sattorov, A. Ro’ziyeva va

boshqa ko'plab aktior va aktrissalar ishlaganlar. Bular faoliyati davomida teatr "Qopqoq", "Qavoqboy va qovunlar", "G'alamislar qo'zg'aloni", "Chiychiyoyning sarguzashtlari", "Quvnoq mashara bozlar", "Badjahil quyonch", "G'aroyib mehr" kabi spektakillar, bir qator qo'g'irchoq konsertlarini sahnalashtirilgan. Bolalar ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy mezonlarni singdirish vazifasini bajaradi. Teatr, maktab, oromgohlar, sihatgohlarda ham tomoshalar ko'rsatadi, katta teatr va Qarshi shahri maydonlarida o'tkaziladigan bayram va tadbirlarda qatnashadi.

III – BOB. QASHQADARYO VILOYATI MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

3.1. Maktab geografiya darsliklarida Surxondaryo viloyatiga oid mavzular tahlili

Maktab darsliklari fan yutuqlari asoslarini o'zida mujassamlashtirgan, eng muhim ta'lim vositalaridan biri hisoblanadi. Surxondaryo viloyatiga oid mavzular maktab geografiya kurslarida yettinchi sinfdan o'qitilib boshlanadi. Yettinchi sinf Geografiya darsligining birinchi bo'limi O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi deb nomlanib, unda O'rta Osiyoning umumiy geografik tavsifa, geografik xaritalar, atlaslar, globus va ular bilan ishlash, O'rta Osiyoning geografik tuzilishi va relyefi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, osimliklari va hayvonot dunyosi, O'rta Osiyoning hududiy tavsifi kabi mavzulardan iborat. Ikkinchi bo'limining birinchi qismi O'zbekiston tabiiy geografiyasi deb nomlanib, unda respublikamizning geografik o'rni, chegaralari, maydoni, yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, iqlimi, ichki suvlari, tuproq va o'simlik, hayvonot dunyosi, tabiat boyliklari haqida to'liq ma'lumotlar beriladi. Ikkinchi bo'limning ikkinchi qismida endi "Tabiat komplekslari tavsifi" deb nomlanadi, atroflicha yoritiladi va O'zbekistonning tabiiy geografik o'lkalari, har bir o'lkaning iqlimi, suvlari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi keng yoritiladi. Qashqadaryo tabiiy geografik o'lkasiga oid mavzuga jami ikki soat ajratilgan bo'lib, to'rtinchi chorakka to'g'ri keladi. Birinchi soatda o'lkaning geografik o'rni, relyefi va asosiy tog'larini bilish haqida o'qitilib, bunda o'quvchilardan Qashqadaryo o'lkasidagi tog'larning orografiktuzilishini chiza olish, Qarshi, Jom, Malik, Qarnob, Nishon cho'llarini xaritadan ko'rsatib bera olish talab qilinadi. Ikkinchi soatda esa endi o'lkaning iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida bilim berilib, o'quvchilar iqlimning asosiy xususiyatlari, daryolari, ularning to'yinishi, xalq xo'jaligidagi ahamiyatini bilishlari zarur. Bu bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari uchun o'quvchilar darslikdagi ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda viloyatning yoki O'zbekiston respublikasining tabiiy xaritasi, tuproq, o'simlik va hayvonot, iqlim xaritalaridan, yettinsi sinf atlasidan kengroq foydalanishlari zarur. O'lkaga oid

egallangan bilimlar chorak yakunida yettinchi nazorat ishi olish bilan yakunlanadi. Nazorat ishida Qahqadaryo o'lkasi qaysi tog' orqali Tojikiston va Surxondaryo bilan chegaradosh? kabi gaplardan iborat geografik diktant olinadi.

Yettinchi sinfda Qahqadaryo tabiiy geografik o'lkasining tabiiy geografik jihatlari o'rganilgan bo'lsa, sakkizinchi sinfda bevosita mavzuning davomi sifatida Surxondaryo viloyatining iqtisodiy - ijtimoiy xususiyatlari o'rganiladi. Sakkizinchi sinf darsligining birinchi qismida O'zbekiston milliy iqtisodiyotining umumgeografik ta'rifi qirq ikkita dars asosida berilgan, bunda O'zbekistonning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, ularning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, aholi va inson omili, aholi manzilgohlari, O'zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi, O'zbekistonning tarmoqlararo majmualari, yoqilg'i - energetika, kimyo, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik majmui, sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari, agrosanoat majmualari, uning mintaqalar bo'yicha ixtisoslashishi, to'qimachilik va yengil sanoati, xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi, turizm atroflicha yoritilgan bo'lsa, ikkinchi qismi O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari va viloyatlari yigirma oltita dars asosida o'rganiladi. O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish va iqtisodiy geografik rayonlashtirish, Toshkent, Farg'ona, Mirzacho'l, Samarqand, Buxoro-Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, quyi Amudaryo kabi mavzulardan iborat. Qahqadaryo iqtisodiy rayoniga oid mavzularga sakkizinchi sinfda jami ikki soat ajratilgan bo'lib, bu soatlar ham to'rtinchi chorakka bo'g'ri keladi. Birinchi soatda mintaqa haqida ma'lumotlar beriladi va o'quvchilar respublikaning asosiy yoqilg'I bazasi ekanligi, sanoatning ixtisoslashgan tarmoqlari va markazlarini, energetika – kimyo majmui haqida bilish, yozuvsiz xaritaga foydali qazilmalarini va sanoat markazlarinin tushira olish, rayonning iqtisodiy geografik o'rniga baho berish malakasini egallashlari kerak bo'ladi. Ikkinchi soatda Qahqadaryoning sanoati va yirik shaharlari to'g'risida aytilib, o'quvchilar agroiklimiy resurslari va qishloq xo'jaligining joylashish xususiyatlari; Qarshi dashtining o'zlashtirilishi, va ekologik muammolari haqida bilish, xarita va statistic ma'lumotlardan foydalanib sanoat tarmoqlarining joylashish omillarini tahlil qila olish malakasiga ega

bo'lishlari zarur. O'quvchilar sakkizinchi sinfda ham bilimlarni to'liq egallab, malakaga ega bo'lib, ko'nikmalar hosil qilishlari uchun darslikdan tashqari qo'shimcha sakkizinchi sinf O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi atlasidan, O'zbekistonning ma'muriy - hududiy kartasidan, har bir iqtisodiy rayonning iqtisodiy kartalaridan, statistik materiallardan foydalanishlari talab etiladi. Egallangan bilimlar chorak yakunida yettinchi nazorat ishi olish bilan yakunlanadi. Nazorat ishida Qahqadaryo viloyatiga oid test topshiriqlari olinadi.

3.2. Mavzularning moddiy texnik ta'minoti va ulardan foydalanish

Maktabda fan asoslaridan o'quvchilarga puxta va chuqur bilim berish uchun jiddiy ishlarni amalga oshirish lozim. Buning uchun avvalo o'qituvchi o'qitishning samarador metodlarini va usullarini izlab topishga ko'plab harakat qilmog'i lozim. Ayniqsa ilmiy - texnika taraqqiy etgan hozirgi sharoitda o'quvchilarning o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim hajmi nihoyatda ortib bormoqda. Masalan iqtisodiy geografiya kurslarini olib qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy geografiya ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi va ularning ishlab chiqarish munosabatlari bilan uzduksiz aloqalarini, turli rayon va mamlakatlarning geografik joylanish va taraqqiyot xususiyatlarini o'rganadi.

Iqtisodiy geografiya ham turmush talabi, munosabati bilan uzluksiz rivojlanadi. Iqtisodiy geografiya kursining asosiy vazifalaridan biri - mamlakatimiz hududining tabiiy resurslari (yer, suv, iqlim, o'simlik va hayvonot olami, hamda yer osti boyliklari) va ulardan oqilona asosida rayonda ishlab chiqarishning rivojlanishi va joylashuidagi tez sur'atlar bilan bo'layotgan o'zgarishlarni o'quvchilarga zamon talabiga mos holda tushuntirishdan iborat. Bunga erishish uchun o'qituvchi o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollar va fan - texnika taraqqiyotining yutuqlaridan keng foydalanishi zarur.

O'quv materiallarini o'quvchilarga tushuntirishda ularning bilimlarini turmush bilan bog'lash hamda iqtisodiy geografiya predmetiga bo'lgan

qiziqishni oshirishda o'qituvchiga mavzularga oid xaritalar, rasmlar, diagrammalar, jadvallar bilan bir qatorda turli texnika vositalari katta yordam beradi. Ayniqsa, filmoskop, diaproyektor, kadroyektor, kodoskop, epidoskop, kinoapparatalarning o'rne juda muhim. o'qituvchi bu texnik vositalardan foydalanayotganida maktabning fizika o'qituvchilari bilan bevosita uzviy aloqada bo'lishi lozim.

O'quv jarayonida yuqorida bayon qilingan texnik vositalardan foydalanish uchun avvalo o'qituvchidan maxsus tayyorgarlik ishlarini olib borish talab etiladi:

1. O'qituvchi fanlar bo'yicha o'quv yilining boshidayoq kalendar va ish reja bilan birga dastur (ayniqsa o'quv qurollaridan foydalanishning texnik vositalari)ni ishlab chiqishi kerak. Bu ishchi dasturda quyidagi masalalarni bajarish talab etiladi:

a) har bir dars turi uchun mavzularning soati va uni puxta tushuntirish, o'quv qurollarini ko'rsatish vaqtlari puxta tuzilishi;

b) diafilm va dipozitivlarni dars mavzusiga moslab tanlash;

v) kadrlarni jonlanirish, diktora matni va varaqalarini mashina yozuvida tayyorlash va magnitafonga yozib qo'yish kerak bo'ladi.

3. Televizion o'quv darslaridan foydalanish uchun geografiya predmeti dars soatlarining vaqti, teleeshittirish dasturining kunlarga moslashtirilgan holda tuzilishi kerak.

4. Texnik vositalardan foydalanishda dastur materiallaridan yangi bilimlar bilan boyitib mustahkamlashga qaratilmog'i lozim.

Darslarda shunday texnika vositalaridan foydalanish natijasida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash jarayonining sifatini yaxshilashga va uning samaradorligini oshirishga erishiladi.

Iqtisodiy geografiya fanini o'qitishda eng ko'p qo'llaniladigan texnik vositalarga epidoskop va filmoskopni misol qilish mumkin. Epidoskopga geografik obyekt haqidagi qo'shimcha bilimlar asosida tayyorlangan turli xil

rasmlar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar yangi mavzuni tushuntirish jarayonida ko'rsatib boriladi. Diafilm - bu yagona mazmunga ega bo'lib, undagi harakatlar kadr - kadr rivojlanib boradi. Teleeshittirishdan iqtisodiy geografiya kurslarini o'qitishda ikki xil yo'nalishda foydalanish mumkin:

1. Maxsus iqtisodiy geografiya darslarida.

2. Iqtisodiy geografik obyektlar haqida umumiy bir nechta mavzular yuzasidan bilim beradigan televizion eshittirish bo'lganda takrorlash dars turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Texnika vositalaridan foydalanib dars o'tishda quyidagi jihozlar zarur:

1. O'zbekistonning siyosiy kartasi;

2. O'zbekistonning tabiiy, siyosiy, iqtisodiy kartalari;

3. Iqtisodiy jihatdan rivojlanish jadvallari va xo'jalik tarmoqlari salmog'ini ko'rsatuvchi diagrammalar;

4. Asosan Qahqadaryo viloyatidagi yoqilg'i – energetika mahsulotlarining kolleksiyalari, suratlar va hakoza.

Tashkiliy ishlar bajarilgach, mavzuning rejasi amalga oshiriladi. Mazmuni 12 - 15 minut atrofida epidoskop va diafilmdan foydalanib tushuntiriladi. Keyin kinofilm haqida tushuncha berilib, kino namoyish qilinadi. Kino tugashi bilan doskadagi reja asosida mustahkamlanadi va uy vazifalari beriladi. Uy vazifalari asosan dars jarayonida qilingan ishlar yuzasidan ayrim mustaqil topshiriqlarni bajarishga qaratiladi.

O'qituvchi yangi materiallarni tushuntirishda oldin O'zbekiston tabiiy kartasidan foydalanib, o'quvchilarga O'zbekistonning geografik o'rnini, yer yuzasining xususiyati, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, iqlim xususiyatlari va boshqa komponentlar hamda yettinchi sinfda olgan bilimlarini bir karra eslatib o'tadi. So'ngra o'qituvchi yangi mavzu mazmunini yoritadi.

Xulosa qilib aytganda iqtisodiy geografiya kurslarida texnika vositalardan to'g'ri foydalanib dars o'tish, materiallarni chuqur o'zlashtirish bilan birga,

o'quvchilar malakasini mukammal oshira borib, mustaqil ishlash qobiliyatini ham o'stiradi.

3.3. Qashqadaryo viloyati mavzusining yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi bir soatlik dars ishlanmasi

8 -sinf

Fan: O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi

Mavzu: Qashqadaryo viloyati

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: Qashqadaryo iqtisodiy geografik rayonining tabiiy, iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslari, aholisi, xo'jaligi va uning hududiy tashkil etilishi haqida tushuncha hosil qilish.

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishlarini orttirish orqali dialektik - materialistik dunyoqarashini shakllantirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish.

c) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, eng yaxshi axloqiy sifatlarni, olgan bilimni hayot bilan bog'lay olish, Vatanni, uning tarixi, madaniyati, urf- odatlarini, eng asosiysi insonni hurmat qilishni, estetik didni, iqtisodiy, hududiy madaniyatni tarkib toptirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: dunyo tabiiy va siyosiy kartasi, O'zbekiston tabiiy va ma'muriy kartasi, 7 - 8 - sinf darsligi, atlas, globus, tarqatma materiallar, kom'pyuter, proektor yoki kodoskop.

Dars turi: Nazariy.

Dars tipi: Yangi bilim beruvchi.

Interfaol usullar: Eng, eng, eng, BBB usuli, muammoli jadval, bilag'onlar ko'chasi, 5x6x7 – ortiqcha o'yinlari.

Dars bosqichlari va vaqt taqsimoti:

1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Siyosiy axborot	3 daqiqa
3	O'tilgan mavzuni mustahkalash	10 daqiqa
4	Yangi mavzuni yoritish	15 daqiqa
5	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
6	Darsga yakun yasash va baholash	3 daqiqa
7	Uyga vazifa	2 daqiqa

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. 8 - sinf geografiya darsligi.
2. A. Soliyev, M.Nazarov, Sh.Qurbonov. O'zbekiston hududlari ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi.
3. A.Soliyev. Mintaqaviy iqtisodiyot.
4. Statistik ma'lumotlar.
5. Ma'rifat gazetasi.

Texnika xavfsizligi qoidalar: proektor yoki kodoskop ishlatilayotganda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.

Fanlararo bog'lanish: geologiya, biologiya, tarix, statistika.

Darsning borishi:**I. Tashkiliy qism**

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- s) siyosiy daqiqa;
- d) o'tgan mavzuni so'rash.

O'tilgan mavzu “Eng, eng, eng” o'yini orqali qisqa savol, tez va qisqa javob tarzida baholanadi. Masalan 8 – sinf O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursida savollar quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Buxoro – Navoiy iqtisodiy rayonidagi maydoni eng katta viloyat?
2. Buxoro viloyatining eng mashhur sanoat tarmog'i?
3. Iqtisodiy rayon xo'jaligining eng yetakchi tarmog'i?

Agar 7 – sinf O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursi o'tilayotgan bo'lsa,

- 1.Qashqadaryo o'lkasining eng asosiy tog'lari?
2. O'lkada eng ko'p uchraydigan foydali qazilma?
3. O'lkaning eng uzun daryosi?

Shunga o'xshash o'nlab savollar bo'lishi mumkin.

II. Yangi mavzu bayoni:

Iqtisodiy-geografik o'рни va tabiiy boyliklari. Bu viloyatda yillik o'rtacha harorat O'zbekistonning boshqa joylaridagidan birmuncha yuqori. Viloyatda 1 mln gektarga yaqin sug'orishga varoqli yer bor, biroq suv tanqis. Hatto suvdan eng samarali foydalanilganda ham ko'p yerlarga suv yetib bormaydi. Shu tulayli aksar yerlarga bahorikor donli ekinlar ekilmoqda. Qashqadaryo vodiysi Qashqadaryo va uning chap irmoqlari— Oqsuv, Tanxoz, Yakkabog' va G'uzor suvi bilan sug'oriladi. Vodiya Chimqo'rg'on suv ombori qurilib, Qashqadaryoning o'rta va quyi oqimida suv sarflanishining tartibga solinishi hamda Eski Anhor kanali orqali Zarafshondan suv keltirilishi natijasida obikor yerlar maydoni ancha kengaydi.

Vegetatsiya davri tekisliklarda 290—300 kungacha davom etadi. Tuproq va iqlim sharoiti ingichka tolali paxta va mevalar yetishtirishga qulay. Biroq G'uzordaryo kamsuv bo'lib, faqat bahor (aprel)da to'lib oqadi. Uning oqimini tartibga solish maqsadida Pachkamar suv ombori qurilgan. Yakkabog'daryoda Hisorak suv ombori qurilgan. Deyarli 1 million gektar maydonni sug'ora oladigan Amu — Qarshi mashina kanali qurildi. Bu kanal yo'lida bir yarim milliard m³ suv sig'adigan Tolimarjon suv ombori, kuchli nasos stansiyalari barpo etilmoqda. Nasoslar suvni 132 metr yuqoriga ko'tarib beradi. Umuman 6 nasos stansiyasi Qarshi cho'lini o'zlashtirishga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy geografik rayonda cho'l va tog' yaylovlarining o'zlashtirilishi bilan tabiiy yaylovlar tobora qisqarib bormoqda. Bundan qorako'lchilik zarar ko'rmasligi uchun cho'llarda fitomeliorativ tadbirlar ko'rilmogda.

Iqtisodiy geografik rayonda yoqilg'i-energetika boyliklari nihoyatda ko'p. Sho'rtan gazi Sirdaryo GRESini, hatto Yangi Angren GRESini ham yoqilg'i bilan ta'minlaydi.

Muborak gaz konlari butun mamlakatga va qo'shni davlatlarga yoqilg'i yetkazib bermoqda. Bir necha neft, yonuvchi slanes konlari aniqlangan. Tosh tuzi, mergel, ohaktosh, gips zaxiralari kimyo va qurilish materiallari sanoati uchun katta istiqbollar ochadi.

Aholisi. Sug'orib dehqonchilik qilinadigan tumanlarda aholi zich (har kv. km ga 100-250 kishi), tog', cho'l, chala cho'llarda aholisi siyrak — har kv. km da 1-4 kishi yashaydi. Jami aholining 3/4 qismi qishloqlarda yashaydi. Shahar aholisining soni ko'chib kelganlar va tabiiy ko'payish hisobiga ortib bormoqda. Shaharlar kengaymoqda, yangi shaharchalar paydo bo'lmoqda. Tabiiy, tarixiy va iqtisodiy sharoitlar shahar to'rt-besh xonadondan iborat qishloqlar ulkan hudud bo'ylab sochilib ketgan. Yaqingacha uylar terak, archa va qayrag'och yog'ochi hamda tosh, tuproq va somon kabi mahalliy ashyolardan qurilar edi. Yangi yerlarni o'zlashtirish jarayonida obod shaharchalar qad ko'tardi.

Xojaligi va uning hududiy tashkil etilishi. Qishloq xo'jaligi. Viloyat ekin maydonining 25 foizini paxta ekiladi. Viloyatning Qarshi cho'li mintaqasida ixtisoslashgan paxtachilik, mevachilik, chorvachilik xo'jaliklari tashkil etildi. Bu yerlarda paxta yetishtirish majmui takomillashgan rayon vujudga keldi. Viloyat qishloq xo'jaligida bahorikor don xo'jaligi yaylov qo'ychiligi, ayniqsa qorako'lchilik muhim salmoqqa ega. Bug'doy yetishtirish bo'yicha viloyat qadimgi mavqeyi tiklamoqda. Pillachilik, mevachilik va sabzavotchilik xo'jalikning qo'shimcha tarmoqlaridir.

Paxta asosan Kitob — Shahrisabz botig'i va Qarshi vohasida yetishtiriladi. (G'allakorlik tarqalgan tog'oldi hududlarida yiliga 350—550mm yog'in yog'adi. Kuzgi don ekinlari yozgi issiq kunlar boshlanmasdan pishib ulguradi. Tabiiy sharoit tok hamda danakli daraxtlari uchun ham birmuncha qulaydir. Qarshi uzumi, ayniqsa uning «maska» navi shiraligi bilan mashhur. Olma, nok, anjir, anor kabi issiqsevar mevali daraxtlar ham o'stiriladi. Mevazorlar, sabzavot va poliz ekin maydonlari ham asosan Kilob - Shahrisabz botig'ida bo'lib, u yerda sharob, meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Paxtachilik bilan birga pillachilik ham rivojlanmoqda. Viloyat qorako'lchilikda mamlakatda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Keng yaylovlar, makkajo'xori va beda yetishtirish, sanoat chiqindilaridan foydalanish chorvachilik yuksalishiga imkon bermoqda. Chorvachilikda qorako'lchilikning salmog'i katta. (Go'sht va yog' uchun boqiladigan dumbali qo'ylar hamda echkilar tog' va tog'oldi

yaylovlarida boqiladi. Tog'oldilarida hamda quruq dashtlarda mayin, uzun junli qo'y va echkilar boqilmoqda. Qoramollar asosan molxonalarda boqiladi. qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'langan. Uning asosiy tarmoqlari paxta tozalash, yog' olish, sharob, meva-sabzavot konservalari tayyorlashdan iborat. Butun sanoatning 66 foizidan ko'prog'i yengil va oziq-ovqat sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Gaz, neft hamda tuz konlari negizida kon sanoati vujudga kelmoqda. Yirik sanoat korxonalari Qarshi, Shahrisabz shaharlarida hamda ba'zi yirik qishloq va shaharchalarda joylashgan.

Mahalliy sanoat palos, do'ppi, qandolat kabi milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradi. Ko'mir, neft, gaz, tuz kabi foydali qazilmalar negizida yoqilg'i-energetika-kimyo majmuasi shakllanib bormoqda. Yiliga 125 ming tonna polietilen va 137 ming tonna suyultirilgan gaz ishlab chiqara oladigan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi ishlay boshladi.

Shaharlari. Viloyatda 12 ta shahar va 4 ta shaharcha bor. **Qarshi** viloyatning ma'muriy, madaniy markazi. U qadimiy karvon yo'li ustida bunyod etilgan. Ilgari shaharda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar hamda hunarmandchilik ustaxonalari bor edi. Endilikda ulkan «Uchqun» gilam to'qish fabrikasi mamlakatda mashhur.

Qarshi vauning tevaragida paxta, ipak, yog' zavodlari, metall ishlash korxonalari, tikuvchilik fabrikalari, binokorlik materiallari kombinati kabi korxonalar qurilib, Qarshiga aylandi. Cho'lni o'zlashtirishda Qarshi tayanch hisoblanadi. Temiryo'l va avtomobil yo'llari Qarshida birlashadi. Bu hol Nishon, Tolimarjon, Koson kabi shahar va shaharchalarning ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantiradi.

Shaharda Qarshi davlat universiteti, Qarshi agrar-iqtisodiyot instituti, Toshkent davlat texnika universitetining Qarshi filiali va boshqa ma'rifiy-madaniy muassasalar bor.

Kitob — Shahrisabz vohasida joylashgan. Shahar hunarmandchilikning yirik markazi bo'lib keldi. Shahrisabzga temiryo'l kelishi uning yuksalishini tezlatdi. Do'ppi, so'zana, ko'ylak, sumka, gilam kabilar tayyorlanadigan mayda va tarqoq hunarmandchilik ustaxonalari birlashtirilib, «Hujum» fabrikasi tashkil

etilgan. Shahrimizning gilam do'ppisi Parij ko'rgazmasida yuqori baholangan. Shahardagi 2 ta konserva zavodi meva-sabzavotdan, qoraqand (zirk), na'matakdan turli xil konservalar ishlab chiqaradi.

Shalirisabz O'zbekistonning sayyohlik markazlaridan biridir 1) buyuk jahongir Amir Temurning tug'ilgan yurti, shaxar tashqi qiyofasida qadimiy me'morchilik obidalari, shu jumladan, Oqsaroy yodgorligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Shahrisabzga yaqin joylashgan shahar. Shaharda xunarmandchilik yaxshi rivoj topgan. Uning tashqi ko'rinishi Shahrisabzga o'xshab ketadi. Kitob yonida jahon ahamiyatiga ega bo'lgan Ulug'bek nomidagi **Kenglik stansiyasi** bor.

Yangi mavzu bayon qilingach mustahkamlash uchun turli o'yinlar tashkil etiladi. Masalan: Sing uch guruhga bo'linadi va

“B.B.B” O'YINI TASHKIL ETILADI.

O'yinda o'quvchilar mavzu yuzasidan quyidagicha jadval asosida ishlaydi

BILARDIM	BILIB OLDIM	BILMOQCHIMAN
Qashqadaryoning geografik o'rni va chegaralarini	Qashqadaryoning tabiiy sharoiti va resurslari, ularning xo'jalikdagi ahamiyati	Transportining o'ziga xos xususiyatlari

Har bir guruhga umumiy topshiriq sifatida beriladi.

Guruh a'zolari jadvalni to'ldirgunga qadar sardorlarga 5x6x7- ortiqcha topshirig'i beriladi. Topshiriq:

Qashqadaryodagi tumanlar

1. Dehqonobod
2. Muborak
3. Chiroqchi
4. Qamashi
5. G'uzor
6. Yakkabog'
7. Oqtosh.

Muammoli jadval topshirig'i beriladi:

Muammo sanoat korxonalarining viloyat ekologiyasiga ta'siri

Kecha	Bugun	Ertaga

Guruhlar jadvalni to'ldirib bo'lgach bilag'onlar ko'chasi o'yini o'tkaziladi.

Bunda har bir guruhdan o'quvchilar bittadan chiqib doskadagi konvert ishidagi savollarga javob beradilar. Savollar:

1. Viloyatda nechta tuman bor?
2. Viloyat nechta tuman bilan chegaradosh?
3. Janubda qaysi viloyat bilan chegaradosh?
4. Viloyatdagi foydali qazilmalar soni va turi?
5. Aholining o'rtacha zichligi?
6. Daryo va suv omborlarini ayting va kartadan ko'rsating.
7. Yirik shaharlarini ayting va kartadan ko'rsating.
8. Qanday mahsulotlar import va eksport qiladi?
9. Jahon ahamiyatiga molik qanday inshoot mavjud?
10. Anorchilik xo'jaligining nomi?

Eng oxirida o'rgamchak to'ri o'yini o'tkaziladi. Bunda berilgan savolga javob bergan o'quvchi ipni ushlaydi va oxirida hamma baravar qo'lini ko'taradi. Dars davomida berilgan topshiriqlarni bajargan o'quvchilarga jeton berib boriladi va oxirida hisoblanib baholanadi.

III. Yakuniy qism:

- a) Baholash (iqtidorli, yaxshi qatnashgan o'quvchilarning ballari e'lon qilinadi, g'oliblar aniqlanib, rag'batlantiriladi);
- b) Uyga vazifa: Qahqadaryo iqtisodiy rayonini o'qib, viloyatning iqtisodiy kartasini chizib kelish.
- v) Xayrlashish.

BBB TOPSHIRIG'I JADVALI

BILARDIM	BILIB OLDIM	BILMOQCHIMAN
Qashqadaryoning geografik o'rni va chegaralarini	Qashqadaryoning tabiiy sharoiti va resurslari, ularning xo'jalikdagi ahamiyati	Transportining o'ziga xos xususiyatlari

5x6x7 – ORTIQCHA TOPSHIRIG'I

Qashqadaryodagi tumanlar

8. Dehqonobod
9. Muborak
10. Chiroqchi
11. Qamashi
12. G'uzor
13. Yakkabog'
14. Oqtosh.

MUAMMOLI JADVAL TOPSHIRIG'I

MUAMMO: SANOAT KORXONALARINING VILOYAT
EKOLOGIYASIGA TA'SIRI

Kecha	Bugun	Ertaga

BILAG'ONLAR KO'CHASI TOPSHIRIG'I SAVOLLARI

11. Viloyatda nechta tuman bor?
12. Viloyat nechta tuman bilan chegaradosh?
13. Janubda qaysi viloyat bilan chegaradosh?
14. Viloyatdagi foydali qazilmalar soni va turi?
15. Aholining o'rtacha zichligi?
16. Daryo va suv omborlarini ayting va kartadan ko'rsating.
17. Yirik shaharlarini ayting va kartadan ko'rsating.
18. Qanday mahsulotlar import va eksport qiladi?
19. Jahon ahamiyatiga molik qanday inshoot mavjud?
10. Anorchilik xo'jaligining nomi?

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki Qashqadaryo viloyati tabiat unsurlari, ularning xolati bir- biriga bog'liqligi, tabiiy boyliklari, ulardan oqilonalik bilan foydalanib, muhofaza ostiga olish bilan birga viloyatimiz tabiatidagi tafovvtlarni organib, ushbu viloyatning tabiiy sharoitiga umuniy ta'rif berilib, har bir tabiat unsuri alohida- alohida tavsiflandi. Bunda o'sha tabiat unsurlarining hozirgi ahvoli, ularning holatiga ta'sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar, ulardan kelib chiqayotgan salbiy va ijobiy oqibatlariga alohida to'xtalib, yer usti tuzilishinig xilma- xilligi uning geologik tuzilishi va rivojlanish tarixiga, texnokratiyasiga hamda tabiatning boshqa unsurlariga bog'liqligiga alohida ahamiyat berildi.

Shuningdek, viloyatda uchraydigan qazilma boyliklarning joylashish qonuniyatlari, ularning gealogik tuzilishiga bog'liqdir. Qashqadaryo viloyati iqlimiga tavsif berganda eng avvalo iqlim hosil qiluvchi omillarga to'htalib, so'ngira uning unsurlarining (harorat, yog'in, namlik, shamol) holati hududiy joylashishini kuzatgan holda viloyat tabiiy shatoitining xilma- xilligini ko'rish mumkin. Qashqadaryo viloyatining iqlimi quriq va issiq shuning uchun ham bu hududda ingichka tolali paxtani yetishtirishda va bir qancha ajoyib hush tamli issiq sevar mevalar: hurmo, mandarin kabi mevalar yetishtirib berishda alohida ahamiyat kasb etib keladi. Viloyatning juda hush manzara tabiati, ayniqsa tog'li hududlarda dorivor o'simliklarning 30 dan ortiq turi (yovvoyi olcha, yovvoyi bodom, namatak) xalq tabobatida keng ko'llanilib keladi. Iqlimining o'zgachaligi, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining turli- tumanligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu joyda noyob o'simlik bilan birga noyob hayvonlar ham mavjud.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiy jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiiy sharoitining qulayligi iqtisodiyotining rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa foydali qazilmalarida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta axamiyatga ega bo'lgan tabiy resurslar ko'plab uchraydi. Qashqadaryo viloyatida asosan yirik gaz konlarini uchratish mumkin. Shular jumlasiga: Sho'rtan, Muborak, Janubiy Muborak va boshqa yirik gaz konlari mavjud. Bu konlari orqali nafaqat

respublikaiznig balki qo'shni respublikalarni gazga bolgan ehtiyojini qondirishda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu bois boshqa viloyatlar bilan bir qatorda tashqi respublikalar bilan iqtisodiy aloqalar olib boradi. Qashqadaryo viloyati aholisi qadimiy hunarmandchilik bilan ham shug'ullanib keladi. Qashqadaryo viloyati ushbu hunarmandchilik buyumlari bilan nafaqat turmish tarzida balki chetelliklarni etiborini ham jalb qilib kelmoqda.

Qashqadaryo viloyati maorif sohasida ham boshqa viloyatlar singari zamonaviy va hozirgi davir talabiga to'la qonli javob bera oladigan maktab, kollej, litsey va oily o'quv yurtlari mavjud bo'lib u yerda o'quvchi va talaba yoshlar taxsil olmoqdalar. Viloyatda talaba yoshlarning taxsil olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Aholisini turmish darajasini oshirishda manaviy va marifiy sohalarda juda katta ishlar olib borilmoqda. Hususan, sog'liqni saqlashda ham bu jadal harakatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Aholini manaviy dam olishda san'atning ham o'rni katta. Shuning uchun ham ushbu viloyatda ham teatir binolari, muzeylar, kino zallar, madaniyat saroylari barpo etilgan.

Mavzuni yoritishda ko'pgina mutaxassislar fikriga va yangi ma'luotlarga tayanilgan. Shuningdek, ilmiy adabiyotlardan P. Baratovning "O'zbekiston tibiiy geografiyasi", G. Asanovning "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi" va Soliyevning "O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi" kabi ilmiy kitoblari va turli gazeta, ilmiy jurnallardan foydalanilgan.

Shunday qilib to'plangan materiallarni kompleks tahlil qilish jarayonida viloyatning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanishi boshqa viloyatlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ma'lum bo'ldi va ushbu viloyatlardan alohida jihatlari qulayliklari noqulayliklari bilan ham bog'liq bo'lmagan taraflari ham mavjud. Mavzuni yoritish jarayonida ushbu viloyatni boshqa viloyatlar bilan taqqoslab uning iqtisodiyotining nechog'lik rivojlanayotganligiga guvoh bo'lamiz.

Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma – ketlikda qurish talabalarning bilish faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etishdir. O'qitish metodlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga

tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash asosida jamiyat tomonidan maktab (kasb – hunar kolleji, oliy o'quv yurtlari) oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganligini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyadir. "O'qitish metodi dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va talaba faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi umumiy holda o'qitish metodi o'zida faoliyatning didaktik medelini ifoda etadi"¹.

Agar har bir metod belgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Pedagogik texnologiyalar ham darsda talabalar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishiga qaratiladi. Amerikaning "Street law" (ko'cha qonuni) dasturi bugungi kunda yer yuzining ko'plab davlatlari tomonidan "asr"ga olingan va ta'lim makoniga o'rnashib qolayapti. Bunga sabab dasturdan o'rin olgan yuzlab o'qitish metodlarining faolligi, jozibaligi va ta'sirchanligidir. Ular yordamida talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash, axborotlarni tanqidiy qabul qilish, haq - huquqlarini anglab yetish kabi imkoniyatlarga tezda ega bo'ladilar. O'qituvchi esa didaktik jarayonni qurishda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i, ularni mavzu bo'yicha o'quv elementlarining murakkabligi va vaqt tig'izligiga qarab chalg'ishtirmog'i lozim.

Hozirda ta'lim tarbiya tizimini har tomonlama rivojlantirishga mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining asosiy hal qiluvchi sohalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Prezidentimizning ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ma'naviy yetuk, intellektual kamolotga erishgan yangi avlodni tarbiyalash to'g'risidagi g'oyalari

¹ Лернер И. Я. Дидактические основы метода обучения. – М.: Педагогика, 1980. Б. 35.

kadrlar tayyorlash milliy modeli asosini tashkil etdi. Bu model yuksak darajada ongli, varkamol shaxslarni tarbiyalashni ko'zlaydi.

Xuddi mana shu vazifalarni bajarishga, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya kursini, jumladan Surxondaryo viloyati mavzusini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar asosida didaktik materiallardan foydalangan holda o'qitishga bag'ishlangan ushbu Malakaviy Bitiruv ishini bajarish jarayonida quyidagi takli va xulosalarga kelindi:

- ✓ Geografiya kursini o'qitishning sifati va samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan doimiy ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir;
- ✓ O'quvchilarda geografiya fani bo'yicha DTS talablari darajasida chuqur bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishda o'qitishning noan'anaviy usullaridan foydalanishning ahamiyati kattadir;
- ✓ Geografiya predmetidan har bir mavzuni, xususan, Surxondaryo viloyati mavzusini o'qitish jarayonida didaktik materiallar va didaktik o'yinlardan samarali va o'z o'rnida foydalanish o'quvchilarda shu mavzu bo'yicha yetarlicha bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishda ijobiy rol o'ynaydi;
- ✓ O'quvchilarda geografiya fanidan chuqur bilim berishda didaktik materiallar va didaktik o'yinlardan foydalanish bo'yicha har bir geografiya o'qituvchisining o'z ish tarzi, o'z pedagogik uslubi bo'lishi lozim;
- ✓ Har bir geografiya fani o'qituvchisi o'z pedagogik faoliyati davomida geografiya kursini yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar asosida didaktik materiallardan foydalangan holda o'qitish uslublaridan doimiy ravishda takomillashtirib borishi zarur;
- ✓ O'quvchilarda geografiya fanidan DTS talablari darajasida bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishda darsdan va darsdan tashqari mashg'ulotlardan umumiy foydalanish zarur.

Bu olingan xulosa va natijalar shuni ko'rsatadiki, agar har bir geografiya fani o'qituvchisi o'z ish faoliyati davomida, har bir mavzuni o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan va mavzularga doir didaktik materiallardan va

didaktik o'yinlardan foydalansalar geografik ta'lim - tarbiya jarayonida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Hozirda ta'lim tarbiya tizimini har tomonlama rivojlantirishga mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining asosiy hal qiluvchi sohalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Prezidentimizning ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ma'naviy yetuk, intellektual kamolotga erishgan yangi avlodni tarbiyalash to'g'risidagi g'oyalari kadrlar tayyorlash milliy modeli asosini tashkil etdi. Bu model yuksak darajada ongli, varkamol shaxslarni tarbiyalashni ko'zlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: "O‘zbekiston", 1999 y.
2. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish-barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadidir.T. «O‘zbekiston», 2007 y.
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” T.: "O‘zbekiston", 2008 y.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari.-T.: "O‘zbekiston", 2009 y. 56 b.
5. Asanov G. Sosial iqtisodiy geografik lug'at. Toshkent, “O'qituvchi” 1990 y.
6. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I.. “O'zbekiston iqt. va ijt. geografiyasi”. T. O'qituvchi, 1994 y .
7. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A. “O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi” .T. 2002 y.
8. Baratov P. “O'zbekiston tabiiy geografiyasi” .T. “O'qituvchi” , 1993 y.
9. Bo'riyeva M.R.. “Demografiya asoslari” (ma'ruzalar matni). T. 2001 y.
10. Vahobov H., Tillaboyeva M.. “Iqtisodiy geografiya asoslari”. T. O'qituvchi, 2001 y.
11. Komilova N., Soliyev A. Tibbiyot geografiyasi. – T.: Istiqlol, 2005.
12. Musayev P., Musayev J.«O'zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi» 8-sinf darsligi. T. “O'qituvchi” 2008 y.
13. Nazarov A. «Ijtimoiy geografiya». T. , Universitet, 2000 y.
14. Nazarov M. I., Tojiyeva Z. N. Ijtimoiy geografiya. O'quv qo'llanma. – T., 2003.
- 15.Ro'ziyev A.N. Qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish va fan texnika taraqqiyoti. – T.: O'qituvchi, 1981.
16. Ro'ziyev A.N. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish asoslari. Darslik.–T.: O'qituvchi, 1990.

17. Soliyev A., Mahamadaliyev R. Iqtisodiy geografiya asoslari. – T: O'zbekiston, 1996.
18. Soliyev A.. “Shaharlar geografiyasi”. T. 2000 y.
19. Soliyev A., Mahamadaliyev R. Iqtisodiy va sosial geografiyaning asosiy muammolari. Toshkent. 2002.
20. Soliyev A.S., Ahmedov E.A., va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T.: «Universitet»-2003.
21. Soliyev A. S. tahriri ostida. Qishloq joylar demografiyasi – T., 2005.
22. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari. T. «Universitet»-2007.
23. Soliyev A.. M. Nazarov. “O'zbekiston qishloqlari”. Fan va texnologiya n. Toshkent, 2009 y.
24. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi tomlari, Toshkent, 2001 y.
25. O'zbekiston R. Qashqadaryo viloyatlari statistika boshqarmalari ma'lumotlari
26. Qubonniyozov R.«Geografiya ta'limi metodikasi». Urganch, 2001 y.
27. G'ulomov P. “O'zbekiston tabiiy geografiyasi” 7-sinf darsligi T. “O'qituvchi” 2008 y
28. Internet saytlar: <http://geo.1september.ru>
[www. geografya. ru](http://www.geografya.ru)
[www. wgeo. ru](http://www.wgeo.ru)